



KASB TANLASHDA TENG IMKONIYATLAR

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni
to'g'ri kasb-hunar tanlashi uchun tavsiya

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH ILMIY-METODIK MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

KASB TANLASHDA TENG IMKONIYATLAR

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etilgan inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari (alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari) uchun



Toshkent - 2026-yil

“Kasb tanlashda teng imkoniyatlar” O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy metodik markazi huzuridagi “Inklyuziv ta’lim va psixologiya” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashning 2026-yil 27-mart kuni 1-sonli yig‘ilish bayoni bilan nashrga ma’qullangan.

© S.Mo‘minov, G.Alimova, O‘.Odiljonov, U.Xudayberdiyev

Taqrizchilar:

- R.To‘rayev** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Inklyuziv ta’limni rivojlantirish, mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish va ekologik diplomatiya boshqarmasi boshlig‘i;
- O.Raxmonov** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish va sun’iy intellektni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi;
- I.Mexmonov** A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Hududlarda uzluksiz kasbiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi.

Mas’ul muharrir va sahifalovchi:

D.Nurmatov - O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi.

“Kasb tanlashda teng imkoniyatlar” nomli mazkur tavsiya alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun tavsiya etiladigan kasblar va xalqaro tajriba AQSh, Germaniya, Yaponiya, Italiya, Fransiya, Kanada va boshqa davlatlar amaliyotiga tayanilgan.

O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda, kelgusi 10 yil davomida bu kasblarning mamlakatimizda qanday amalga oshirilishi mumkinligi yuzasidan tavsiyalar ham berib o‘tilgan.

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. KASB TANLASHDA TENG IMKONIYATLAR: NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLAR...7	7
Inklyuziv ta'lim va kasbga yo'naltirishning asosiy tamoyillari	7
O'zbekiston sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish masalalari.....	11
II BOB. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN KASB TANLASH	13
Kar (eshitmaydigan) bolalar uchun kasb tanlash mezonlari.....	13
O'zbekiston sharoitidan kelib chiqib tavsiya qilinadigan kasblar ro'yxati	15
Zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash	16
III BOB. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN KASB TANLASH	19
Ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun kasb tanlash yondashuvlari	19
Zaif ko'radigan va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash	21
Texnologik yordam vositalari va moslashtirilgan muhit.....	26
IV BOB. NUTQIDA OG'IR NUQSONLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN KASBLAR.....	27
Nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash.....	27
Raqamli, ijodiy va masofaviy ish imkoniyatlari	30
V BOB. TAYANCH-HARAKAT APPARATIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN KASB TANLASH.....	31
Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash	31
Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun kasb tanlashda xalqaro va mahalliy muvaffaqiyatli amaliyotlar	34
VI BOB. MURAKKAB NUQSONLI BOLALARNI KASBGA YO'NALTIRISH.....	35
Murakkab nuqsonli (tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan aqli zaif) bolalar uchun kasb tanlash ...	35
Murakkab nuqsonli bolalar uchun kasbga yo'naltirishda himoyalangan (sheltered) va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitlari.....	37
VII BOB. PSIXIK RIVOJLANISHI SUST BOLALAR UCHUN KASBLAR.....	38
Psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash.....	38
Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun kasb tanlashda ijtimoiy integratsiya va mehnat orqali moslashuv masalalari	41
VIII BOB. AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONLAR BO'LGAN BOLALAR UCHUN KASBLAR	42
Aqli zaif bolalar bolalar uchun mos kasb tanlash.....	42
Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun tavsiya etiladigan kasblar	44
Murakkab nuqsonli (og'ir darajadagi aqli zaif) bolalar uchun mos kasb tanlash.....	47
Autistik spektri buzilgan bolalar uchun mos kasblar tanlash	49
IX BOB. KASBGA YO'NALTIRISHDA AMALIY TAVSIYALAR.....	51
Ota-onalarga maslahat: uy sharoitida amaliy ko'nikmalarni qo'llab-quvvatlash yo'llari.....	51
Kasbiy mashg'ulotlarni baholash mezonlari va usullari	52
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun kasbiy sinovlar, ustoz-shogirdlik va rehabilitatsiya yo'llari	54
Sun'iy intellekt bilan bog'liq, ammo inson ishtiroki majburiy bo'lgan kasblar.....	55
XULOSA	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	58



KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri - har bir bolaga, u qanday salohiyat, imkoniyat yoki alohida ehtiyojga ega bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatda munosib o'rin topishi, mustaqil hayotga moslashishi hamda mehnat orqali o'zini namoyon qila olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Shu ma'noda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, hayotiy ko'nikmalarni egallashi va kelajakdagi kasbiy yo'lini ongli tanlashiga xizmat qiladigan tizim sifatida qaraladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish esa ushbu maqsadning amaliy ifodasi bo'lib, ularning imkoniyatlariga mos, ijtimoiy foydali va iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat turlarini tanlashga ko'maklashadigan strategik yo'nalish sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Chunki kasb-hunarga yo'naltirish orqali bola o'z qobiliyatlarini anglaydi, mehnatga tayyorlanadi, o'ziga ishonchi mustahkamlanadi va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi mehnat bozori inson kapitaliga bo'lgan talabni faqat mutaxassislik darajasi bilan emas, balki uning jamiyatdagi barcha qatlamlar uchun ochiqligi, ya'ni teng imkoniyatlar asosida shakllanishi bilan ham belgilamoqda.

Shu nuqtayi nazardan, nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar, yoshlar, keksalar hamda boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun teng mehnat imkoniyatlarini yaratish masalasida ushbu tenglik ko'proq an'anaviy kasblar doirasidami yoki aksincha, zamonaviy, texnologik va innovatsion sohalarida kengroq namoyon bo'layaptimi, degan savol bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda.

O'zbekiston davlat siyosatida inklyuziv yondashuvlarning ustuvor yo'nalish sifatida mustahkamlanishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar bilan uyg'un ravishda rivojlanmoqda.

Xususan, xalqaro konvensiyalar, jumladan BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi"ga asoslangan hujjatlar va me'yoriy-huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi ushbu sohada muhim huquqiy zamin yaratmoqda. Biroq shuni ham ta'kidlash lozimki, huquqiy asoslarning mavjudligi bilan bir qatorda, o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanish darajasini inobatga olgan holda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha tizimli yondashuvga ehtiyoj ortib bormoqda.

Mazkur qo'llanma aynan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kelajakda ijtimoiy hayotga samarali moslashtirish va mehnat faoliyatiga tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan. Unda tavsiya etilgan kasblar o'quvchilarning psixofiziologik holati, nutqiy rivojlanishi, muloqot shakli (*masalan, imo-ishora tili, Brayl alifbosi yoki yozma muloqot*), motorik qobiliyatlari hamda kognitiv imkoniyatlari asosida tanlangan. Shuningdek, yaqin o'n yillik istiqbolni hisobga olgan holda O'zbekiston mehnat bozorida talab yuqori bo'lishi kutilayotgan, bajarilishi nisbatan oson, moslashtirilgan yoki uy sharoitida ham tashkil etish mumkin bo'lgan kasblarga alohida e'tibor qaratilgan.

Qo'llanma O'zbekiston sharoitidagi mavjud resurslar, texnologik imkoniyatlar, kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan hamkorlik yo'llari, xususiy sektor ishtiroki hamda xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatlari bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan.

Jumladan, Daniya, Germaniya, AQSh va Yaponiya amaliyotidagi "Inklyuziv mehnat" (supported employment) hamda "Moslashuvchan ish muhitlari" (adaptive work environments) kabi model dasturlar tahlil qilinib, ularning ayrim mexanizmlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'nalishlari yoritilgan.

Shuningdek, kasblarni tavsiya etish jarayonida san'at-terapiya, musiqiy terapiya, mehnat-terapiya kabi psixopedagogik metodlardan foydalanish zaruriyati ham inobatga olingan. Zero, kasbga o'rgatish faqat texnik malakani shakllantirish bilan cheklanmaydi; u shaxsiy barqarorlikni mustahkamlash, mustaqil hayot kechirishga tayyorgarlikni kuchaytirish hamda ijtimoiy integratsiyaga zamin yaratadigan muhim vositadir.

Ushbu metodik qo'llanma o'quvchilarning real ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlangan kasblarni tahlil qiladi hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yo'nalish va tavsiyalarni taqdim etadi.

Qo'llanma ta'lim muassasalari pedagoglari bilan bir qatorda ota-onalar, mehnatga tayyorlov markazlari, ijtimoiy rehabilitatsiya markazlari va mahalliy hokimiyat organlari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur qo'llanma shunchaki kasblar ro'yxati emas, balki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaga nisbatan ishonch, e'tibor va imkoniyat yaratish g'oyasiga tayangan ijtimoiy adolat yondashuvining izchil ifodasidir.



KASB TANLASHDA TENG IMKONIYATLAR: NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLAR

Inklyuziv ta'lim va kasbga yo'naltirishning asosiy tamoyillari

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglar va yordamchi xodim (assistent-o'qituvchi)larni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning otalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari:

rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash;

inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni budjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish;

inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi (*Ushbu tamoyil inklyuziv ta'limning ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida davlat va jamiyat tomonidan tan olinishi va qo'llab-quvvatlanishini nazarda tutadi. Bu tamoyil alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning teng huquqli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashga xizmat qiladi*).

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili (*Inklyuziv ta'lim har bir bola uchun, uning jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy xususiyatlaridan qat'iy nazar, ochiq bo'lishi lozim. Ushbu tamoyil ta'limda kamsitishning oldini olib, teng imkoniyatlar asosida ishtirokni ta'minlaydi*).

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili (*Inklyuziv ta'lim jarayoni ta'lim muassasalari, oila, tibbiyot va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi uzviy hamkorlikka asoslanadi. Ushbu bog'lanish bolaning ta'lim va tarbiya jarayonida kompleks qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi*).

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili (*Inklyuziv ta'lim markazlashgan qat'iy modelga emas, balki ta'lim muassasalarining mustaqilligi va moslashuvchanligiga tayanadi. Bu tamoyil joylarda ehtiyoj va imkoniyatlardan kelib chiqib qarorlar qabul qilish imkonini beradi*).

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili (*Mazkur tamoyil ta'lim, tarbiya, psixologik va ijtimoiy yordamni o'zaro uyg'unlikda tashkil etishni nazarda tutadi. Bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillar bir butun tizim sifatida ko'rib chiqiladi*).

Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili (*Ta'lim mazmuni, metodlari va shakllari bolaning individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtiriladi. Bu tamoyil har bir bolaning rivojlanish sur'ati va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi*).

Malakaviylik tamoyili (*Inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish uchun pedagoglar va mutaxassislarning kasbiy malakasi yuqori bo'lishi zarur. Ushbu tamoyil uzluksiz kasbiy rivojlanish va maxsus tayyorgarlikni ta'minlashni talab etadi*).

Inklyuziv ta'lim va kasbga yo'naltirishning asosiy tamoyillari esa quyidagilar hisoblanadi:

Teng imkoniyatlar tamoyili. Har bir bola, jumladan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola ham ta'lim olish va kasb tanlashda boshqalar bilan teng huquqqa ega. Jismoniy yoki psixologik cheklovlar kasb tanlash imkoniyatini cheklamasligi zarur.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Kasbga yo‘naltirish bolaning:
qiziqishi;
qobiliyati;
psixologik holati;
sog‘lig‘i va rivojlanish xususiyatlariga asoslanib olib boriladi.

“Hamma uchun bir xil kasb” yondashuvi inklyuziv ta’limga zid hisoblanadi.

Erta va uzluksiz yo‘naltirish tamoyili. Kasbga yo‘naltirish ishlari faqat yuqori sinflarda emas, balki:

maktabgacha ta’limdan boshlanib, umumiy o‘rta, kasbiy va oliy ta’limgacha uzviy va ketma-ket davom etishi lozim.

Kuchli jihatlariga tayangan holda rivojlantirish. Inklyuziv yondashuv boladagi cheklovlarga emas, balki uning:

kuchli tomonlari;

ijobiy qobiliyatlari;

mavjud salohiyatiga tayanadi. Kasb tanlash “nima qila olmaydi?” emas, “nima qila oladi?” degan savol asosida belgilanadi.

Moslashtirilgan muhit va sharoit yaratish. Kasbga tayyorlash jarayonida:
o‘quv muhiti;

usullar;

texnologiyalar bolaning ehtiyojiga moslashtiriladi.

Bu jismoniy, axborot va kommunikativ moslashuvlarni ham o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy integratsiya va mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash. Kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi - bolani jamiyatdan ajratish emas, balki:

ijtimoiy hayotga moslashtirish;

mustaqil hayot kechirish;

mehnat orqali o‘zini namoyon qilishga yordam berishdir.

Ko‘p tarmoqli hamkorlik tamoyili. Inklyuziv kasbga yo‘naltirish:

tarbiyachi;

pedagog;

psixolog;

maxsus pedagog;

ota-ona va ijtimoiy xizmatlar hamkorligida olib boriladi. Yakka ishlash samarasiz hisoblanadi.

Real mehnat bozori bilan bog‘liqlik. Kasb tanlash tavsiyalari:

real mehnat bozori ehtiyojlari;

hududiy imkoniyatlar;

masofaviy va moslashuvchan ish shakllari bilan uyg‘un bo‘lishi kerak.

Kamsitmaslik va stigmasiz yondashuv. Kasbga yo‘naltirish jarayonida:

yorliq qo‘yish;

past baholash va “unga mos emas” degan qat’iy qarashlar qo‘llanilmaydi.

Bola o‘zini qadrlangan va qabul qilingan deb his qilishi muhim.

Umr davomida rivojlanish tamoyili. Kasb tanlash yakuniy xulosa chiqarish bilan chegaralanmaydi. Inklyuziv yondashuv:

qayta tayyorlash;

yangi ko‘nikmalarni egallash;

kasbni o'zgartirish imkoniyatini doim ochiq qoldiradi.

Inklyuziv ta'lim va kasbga yo'naltirishning asosiy tamoyillari bolani cheklovlari bilan emas, imkoniyatlari bilan ko'rishga, uni jamiyatning to'laonli a'zosi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari esa:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish maxsus o'quv dasturlari talablari asosida bilim olishni ta'minlash;

shaxsga va ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning eng maqbul rivojlanishini ta'minlash maqsadida tabaqalashtirilgan va individual ta'limni tashkil etish;

shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayotda va mehnat faoliyatida xulq-atvorning eng maqbul modelini shakllantirish orqali shaxsni tarbiyalash;

o'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim sharoitida o'qishga tayyorlash;

o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlarining shakllanishi uchun zarur korreksion (tuzatuvchi) - rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning psixik funksiyalari va salomatligi tizimli tarzda kuzatilishini tashkil etish.



O'zbekiston sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish masalalari

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish - bu faqat pedagogik vazifa emas, balki ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish masalasidir. O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishda erta tashxis, individual yondashuv, amaliy tayyorgarlik va qo'llab-quvvatlovchi bandlik tizimi uyg'unlashgan holda joriy etilsa, natijalar sezilarli bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan bo'lsada, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish masalasi hanuz murakkab va ko'p omilli muammo bo'lib qolmoqda.

Kasbga yo'naltirish nafaqat mehnat bozoriga moslashuv, balki bolaning ijtimoiy mustaqilligi, o'zini anglash va jamiyatga integratsiyasi uchun ham muhimdir.

Asosiy muammolar:

Erta va tizimli yo'naltirishning yetishmasligi. Ko'plab ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish ishlari kech boshlanadi. Holbuki, xalqaro tajriba ko'rsatadiki, 5-7 yoshdan boshlab qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash samaraliroq natija beradi.

Individual yondashuvning sustligi. Amaliyotda ko'pincha bolaning muammolari ustuvor qo'yilib, uning real imkoniyatlari yetarli darajada tahlil qilinmaydi. Natijada kasb tanlash maydoni sun'iy torayadi.

Mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlikning zaifligi. Ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik yetarli emas. Bu esa bitiruvchilarning amaliy ishga joylashish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Mutaxassislar tayyorgarligi masalasi. Kasbga yo'naltirish bilan shug'ullanuvchi psixolog, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislarning barchasi ham inklyuziv kasbiy maslahat bo'yicha maxsus tayyorgarliklarga ega emas.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mos kasbiy yondashuvlarga individual kasbga yo'naltirish yo'l xaritasi (IKYX) bilan ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir bola uchun:

qiziqishlari;
amaliy imkoniyatlari;
psixologik holati;
sog'ligiga mos kasblar asosida individual kasbiy reja ishlab chiqilishi zarur.

Amaliy va hayotiy ko'nikmalarga yo'naltirishda nazariy bilimdan ko'ra:
kundalik hayotda qo'llaniladigan;
oddiy, ammo barqaror daromad beruvchi;
xavfsiz va moslashuvchan kasblarga tayyorlash muhim (masalan, xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, raqamli yordamchi kasblar).

Ota-onalar bilan hamkorlik.

Kasb tanlashda ota-onaning:
real hayotga mos qarashi;
bolaning imkoniyatlarini to'g'ri baholashi;
haddan tashqari himoyachilikdan voz kechishi muhim omil hisoblanadi.

Qo'llab-quvvatlovchi bandlik modeli. Alohida ehtiyojli yoshlar uchun:
moslashtirilgan ish joylari;
murabbiy (job-coach) tizimi;
mos ish grafigi joriy etilishi lozim.

Ijobiy istiqbollar:

inklyuziv ta'limga oid huquqiy baza kengayib borayotganligi;
kasbiy ta'lim muassasalarining modernizatsiyasi;
raqamli kasblarning ko'payishi;
alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Erta kasbiy diagnostika tizimini joriy etish (5-7 yoshdan). Maktabgacha va boshlang'ich bosqichda "Kasbiy qiziqish va funksional imkoniyatlar skriningi" joriy etiladi.

Psixolog, maxsus pedagog hamda ota-ona hamkorligida boshlang'ich kasbiy profil tuziladi. Natijada bola cheklov bilan emas, salohiyati bilan baholanadi.

Individual kasbiy yo'l xaritasida hamma bolaga bir xil kasblar tavsiya qilinadi.

Har bir bola uchun quyidagi 4 blokdan iborat individual kasbiy yo'l xaritasi ishlab chiqiladi: Unda bola nima qila oladi, nima yoqadi, qanday sharoitda ishlay oladi, qaysi kasb mos savollari qo'yiladi.

1-sinf dan boshlab tuziladi, 7-, 9-, 11-sinflarda yangilanadi. Natijada tasodifiy kasb tanlovi yo'qoladi.

"Kasb va hayotiy ko'nikma" integratsiyalangan modelida kasbiy bilim bor, lekin ish joyida moslasha olmaydi. Bu muammoga yechim sifatida kasbga yo'naltirish quyidagilar bilan birgalikda o'rgatiladi: muloqot qilish, vaqtini boshqarish, pul bilan muomala qilish, mehnat intizomi va boshqalar.

Maxsus pedagog, kasbiy maslahatchi, "job-coach" modelida bitiruvchiga ish joyida hech kim yordam bermasligi muammo bo'lishi mumkin.

Bu muammoni yechish uchun "Job-coach" (mehnat murabbiyi) lavozimini joriy etish va har 3 - 6 oy davomida:

ish joyiga moslashtirish;

ish beruvchilar bilan aloqa qilish;

muammolarni joyida hal qilish kabilarni bajarishi kerak.

Natijada bandlik barqaror bo'ladi, ishsizlik kamayadi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida inklyuziv ustaxona va modullar tashkil qilish natijasida "Moslashtirilgan kasbiy modullar" joriy etiladi, xavfsiz, qisqa, amaliy topshiriqlar beriladi, tezlik shaklida emas, barqarorlik asosida baholanadi.

Ota-onalar bilan majburiy kasbiy maslahat tizimini joriy etish natijasida har bir bosqichda ota-onaga: bola "nima qila oladi", "nima xavfli", "qaysi kasb mos" tushuntiriladi.

Mehnat bozori bilan real shartnoma asosida hamkorlik qilish ish beruvchilar bilan kvota emas moslashtirilgan ish o'rinlari bo'yicha shartnoma tuzish imkonini beradi.

Natijada "o'qidi, lekin ishlamadi" muammosi bartaraf bo'ladi.

Natijani baholashning yangi mezonlari natijasida "Diplom oldimi - bo'ldi" mezonidan chetga chiqiladi.

Yangi mezonlar: 6 oy ishda qolish, mustaqil vazifa bajarish, ijtimoiy moslashuv darajasi, ish beruvchi fikri inobatga olinadi.

II BOB

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR
UCHUN KASB TANLASH**Kar (eshitmeydigan) bolalar uchun kasb tanlash mezonlari**

Kar bolalar uchun kasb tanlash ularning kelajakda mustaqil hayot kechirishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonda bolaning eshitish imkoniyati cheklangani inobatga olinib, ko'rish, harakat va taktil sezgilarga tayangan faoliyat turlariga ustuvor e'tibor qaratiladi. Kasbga yo'naltirish amaliy mashg'ulotlar, ustoz-shogirdlik asosidagi o'qitish hamda maxsus metodikalar orqali tashkil etiladi.

Ta'lim jarayonida imo-ishora tili, vizual materiallar, videodarslar va real ishlab chiqarish muhiti imkoniyatlaridan foydalanish kar bolalarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va ularni mehnat faoliyatiga samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kar bolalarning jamiyatga to'laqonli qo'shilishi uchun inklyuzivlik tamoyillarini kuchaytirish, ularni boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu sababli kasbga yo'naltirish jarayonida kar bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari, individual imkoniyatlari va kuchli tomonlarini inobatga olgan holda tizimli va individual yondashuvni qo'llash zarur.

Kar bolalar uchun kasb tanlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

ko'rish, taktil va harakatga asoslangan faoliyatni talab qiladigan kasblarni tanlash;

amaliy kurslar hamda ustoz-shogirdlik asosida o'rganish imkoniyatlarini yaratish;

maxsus metodikalardan foydalanish, jumladan imo-ishora tili orqali tushuntirish, dars videolari va real amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;


jamiyatda inklyuziv muhitni kuchaytirish, kar bolalarning tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlashini qo'llab-quvvatlash.

Bunday yondashuv kar bolalarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ularni mustaqil hayot va mehnat faoliyatiga samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

Kar bolalar uchun tavsiya etiladigan kasblar:

1. Grafik dizayner va animatsiya faoliyati rasmlar, logotiplar, videomontaj va multfilmlar uchun dizayn yaratishni o'z ichiga oladi. Bu yo'nalish asosan kuchli vizual tafakkurga tayangan holda olib boriladi va eshitishdan ko'ra ko'rish orqali ishlashga mos keladi. Shu sababli mazkur kasb kar bolalar uchun qulay va istiqbolli hisoblanadi.

Xalqaro tajriba: AQShda "Gallaudet University" bitiruvchilari orasida ko'plab kar grafik dizaynerlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Shuningdek,



Hindistonda kar bolalar **“Sign Medium Art Studio”**da 2D animatsiya va vizual san’at asoslarini o’rganib, amaliy loyihalar orqali kasbiy ko’nikmalarini rivojlantirmoqda.



2. Tikuvchi (*Libos dizayneri*). Libos tikish, bezak berish, naqsh chizish, mato ajratish kabilarni o’z ichiga oladi. Mazkur vaziyatda detallarga e’tibor talab qilinadi, tinglash emas, kuzatish va motorika muhim ro’l o’ynaydi.

Xalqaro tajriba: Vyetnamda kar yosh shaxslar maxsus atelyelarda ish bilan ta’minlangan. Fransiyada **“INJS”** (Institut National des Jeunes Sourds) o’quvchilari modaga ixtisoslashgan.



3. Kosmetolog (*Estetik bezak ustasi*). Soch turmaklash, yuz parvarishi, bezag berish va boshqalar. Qo’l bilan ishlanadigan, vizual tarzda bajariladigan san’atli ishlarni o’z ichiga oladi.

Xalqaro tajriba: Turkiyada **“İşitme Engelliler Kuaför Kursu”** - kar yoshlar uchun sartaroshlik maktabi mavjud. Yaponiyada maxsus imo-ishora orqali kosmetologiya darslari olib boriladi.



4. Kompyuterga texnik xizmat ko’rsatuvchi kompyuter qismlarini yig’adi, kichik detallar bilan ishlaydi. Ko’rsatmalarni imo-ishora bilan tushunishi berak bo’ladi, diqqat va harakat muvofiqligi talab etiladi.

Xalqaro tajriba: Janubiy Koreyada **“Korea Employment Agency for the Disabled”** orqali kar bolalar ITdan texnik sifatida tayyorlanmoqda. Polshada kar bolalar uchun **“DeafTech”** IT loyihasi mavjud.



5. Rassom, haykaltarosh (*Tasviriy san’at ustasi*) Rasm chizish, yog’ochdan yoki loydan buyumlar yasash, mozaika kabi ishlar bilan shug’ullaniladi. Ko’rish, tasavvur qilish, mayda qo’l motorikasini rivojlantiradi, mustaqil ifodalash imkonini beradi.

Xalqaro tajriba: Italiyada **“Arte nel Silenzio”** san’at maktabida kar rassomlar faoliyat yuritadi. AQShda **“Deaf Art Now”** galereyasi faqat kar rassomlarga ajratilgan.



6. Fotograf. Suratga olish, montaj qilish, kamera bilan ishlaydi. Bunda eshitish emas, tasvirni ko'rishni talab qilinadi, kuchli estetik tushunchaga asoslangan bo'ladi.

Buyuk Britaniyada **“Deafinitely Creative”** kar bolalar uchun video darslar olib boradi. Kanadada kar fotograf yoshlar **“Silent Exposure”** festivalida qatnashadi.

7. Avtomexanik. Detallar bilan ishlaganligi sababli texnik ko'rsatmalarni kuzatib bajarish qiyinlik qilmaydi.

Avtoservis markazlarida shogirdlik asosida amaliy tajriba orttirib, ishga joylashishi mumkin bo'ladi. Texnikumlar va kasb-hunar markazlarida qisqa muddatli professional kurslar deyarli barcha davlatlarda mavjud.

O'zbekiston sharoitidan kelib chiqib tavsiya qilinadigan kasblar RO'YXATI

Kasb turi	Mosligi	Qayerdan o'rganish mumkinligi
Tikuvchi	Mayda qo'l motorika ahamiyat kasb etadi	Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi
Grafik dizayner	Ko'rishga asoslangan, mustaqil ishlash imkoniyati mavjud	IT Park, onlayn kurslar
Sartarosh	Amaliy, tushunarli, daromadli	Mahalla markazlari
Kashtachi	Qo'l mehnatiga asoslangan bo'ladi	Ayollar markazlari
Avtomexanik	Faqat texnik ko'nikma talab qilinadi, ko'z bilan kuzatish yetarli	Ustoz-shogird ananalari asosida
Nonvoy	Ketma-ketlik asosida ishlanadi, nazoratli ish hisoblanadi	Oilaviy biznes, amaliy kurslar

Xalqaro tajribalarni mahalliy lashtirish uchun tavsiyalar:

1. AQSh - Gallaudet University. Faqat kar bolalar uchun o'qiydigan oliygoh bo'lib, bitiruvchilarning ko'pchiligi dizayn, fotografiya, veb-sahifa ishlab chiqish sohasida ishlaydi.

Ko'plab darslar imo-ishora va vizual slaydlar asosida o'tiladi. O'zbekistonda Gallaudet tajribasi asosida kar bolalar uchun maxsus kurslar tashkil etish mumkin.

2. Turkiya - Karlar uchun sartaroshlik va tikuvchilik kurslari bor. Ularga imo-ishora yordamida amaliy darslar o'tiladi. Shogirdlik asosida faoliyat yuritish keng tarqalgan. Mamlakatimiz hududlarida ham ustoz-shogirdlik an'analari asosida kar bolalarni kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

3. Janubiy Koreya - DeafTech va IT Training. Kar bolalar uchun IT, video montaj, veb dizayn yo‘nalishlarida texnik ko‘nikmalar beriladi. Kompyuter interfeyslari va ilovalari vizualga asoslangan bo‘lgani uchun bu bolalarga juda ham mos keladi.

Zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo‘lgan bolalar uchun kasb tanlash

Zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalarning kasb tanlashi murakkab, lekin to‘g‘ri yo‘naltirilgan ta‘lim va rejalashtirilgan yondashuv orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Bunday bolalar uchun kasb tanlash jarayonida, eng avvalo, ularning mavjud sensor imkoniyatlari, ya‘ni ko‘rish, harakat va taktil sezgi kabi qobiliyatlari chuqur tahlil qilinishi zarur.

Shuningdek, muloqot uslubi - imo-ishora tili, yozma aloqa yoki texnologik yordam vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari inobatga olinadi. Kasb tanlashda bolaning individual qiziqishlari, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasi ham muhim rol o‘ynaydi.

Shu bois, kasbiy yo‘naltirish ishlari har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlariga mos, zamonaviy va inklyuziv yondashuvga asoslangan tarzda tashkil etilishi lozim.

Zaif eshitadigan va keyinchalik kar (eshitish qobiliyati yo‘qolgan) bo‘lgan bolalar uchun kasb tanlashda:

ularning sensor imkoniyatlari;
muloqot uslubi (masalan, imo-ishora tili, talaffuzidagi muammolar);
texnologik yordam vositalaridan foydalanish ko‘nikmasi;
individual qiziqishlari e‘tiborga olinishi zarur.

Zaif eshitadigan bolalar uchun tavsiya etiladigan kasblar:



1. Grafik dizayner (*Dizayn va vizual san‘at mutaxassisi*). Tasviriy san‘at va dizayn ko‘nikmalari bolalarning fikrini ifodalash uchun juda qulay hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar: Adobe Photoshop, Illustrator.

Xalqaro tajriba: AQShda **Gallaudet University** bitiruvchilari (karlar uchun universitet) ko‘plab dizayn agentliklarida ish faoliyatini olib boradi.



2. Tikuvchi (*Libos dizayneri*). Bu kasbda muhim omil - ko‘z bilan ko‘rish, o‘lchash, kesish va tikish hisoblanadi. Og‘zaki aloqa ko‘p talab qilinmaydi.

Xalqaro misol: Turkiyada va Italiyada eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun maxsus kasb-hunar kollejlari moda dizayni asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rgatiladi.



3. Qandolatchi (*Oshpaz yordamchisi*). Ovqat pishirishda retseptlar yozma shaklda beriladi, ko'rsatmalarni esa ko'z bilan kuzatish mumkin bo'ladi.

Xalqaro misol: Fransiyada **“Cuisine Mode d'Emploi(s)”** loyihasi doirasida kar va zaif eshituvchi yoshlar uchun oshpazlik kurslari tashkil etilgan.



4. Kompyuter dasturchisi (*Veb-dasturchi*). Eshitishdan ko'ra mantiqiy tafakkur, yozma aloqa va texnik bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba: Hindistonda **“Enable India”** tashkiloti zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalarga Python, HTML, CSS kabi dasturlash tillarini o'rgatadi.



5. Matbaa operatori (*Kitob muqovalovchi*). Og'zaki muloqot talab etilmaydi. Ijodiy va amaliy ishlar qilinadi.

Xalqaro tajriba: Germaniyada zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun maxsus ishlab chiqarish zonalari mavjud bo'lib, u yerda matbaa ishlarida faol ish faoliyati tashkil qilinadi.



6. Duradgor (*Yog'ochsoz*). Jismoniy mehnat, ko'z bilan kuzatish hamda qo'l mehnati asosida ish olib boriladi.

Xalqaro tajriba: Yaponiyada karlar uchun maxsus duradgorlikni o'rgatishga asoslangan maktablar mavjud. Ular an'anaviy yog'och uylar tayyorlashda ishlaydi.



7. Florist (*Gullarning bezak va kompozitsiyalar ustasi*). Gullarni tayyorlash, kompozitsiyalar yaratishda ijodiy yondashuv va vizual fikrlash asosiy rol o'ynaydi.

Xalqaro tajriba: AQShda **Deaf-Owned Business** (Karlar tomonidan ochilgan biznes) loyihasi ostida florist studiyalari mavjud.

Mualliflardan tavsiyalar

Kasb tanlashda bolaning individual qiziqishlari, muloqot shakli (masalan, imo-ishora tili yoki yozma aloqa), hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish darajasi hisobga olinishi shart.

Texnologik qulayliklar: Ko‘plab zamonaviy kasblarda subtitrlar, ovozdan matnga aylantiruvchi dasturlar (speech-to-text), maxsus vibratsiyali signal moslamalari orqali ish jarayoni ancha yengillashtiriladi.

Gallaudet University (AQSh): faqat eshitishida muammosi bo‘lgan kar bolalar uchun mo‘ljallangan nufuzli oliy ta’lim muassasasi faoliyat olib boradi.¹

DeafTEC (AQSh): eshitishida muammosi bo‘lgan yoshlarni texnik mutaxassisliklarga o‘rgatishga ixtisoslashgan markaz hisoblanadi.²

EUD (European Union of the Deaf): Yevropa bo‘ylab eshitishida muammosi bo‘lgan kar bolalar uchun kasbiy rehabilitatsiya, ta’lim va ishga joylashtirish dasturlarini amalga oshiruvchi tashkilot.³

¹ <https://gallaudet.edu/>

² <https://deaftec.org/>

³ <https://eud.eu/>

III BOB

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR
UCHUN KASB TANLASH

Ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun kasb tanlash yondashuvlari

Inson hayotining ajralmas bo'lagi bo'lgan kasbiy ta'lim har bir shaxsning mustaqil yashashi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun kasb tanlash va uni puxta egallash imkoniyatlarini yaratish - nafaqat ularning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, balki inson huquqlariga asoslangan inklyuziv ta'lim tamoyillarini hayotga tatbiq etish yo'lida muhim qadamdir.

1. Axborot texnologiyalari (IT) sohalari.



Tavsiya etiladigan yo'nalishlar:

Dasturchi (programmist) - ko'zi ojizlar uchun moslashtirilgan maxsus brauzerlar va ekran o'quvchi (screen reader) dasturlari yordamida bajarilishi mumkin bo'lgan zamonaviy va talab yuqori bo'lgan kasbdir.

Veb-sayt testlovchi (accessibility tester) - saytlarning nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mosligini tekshiradi.

Ma'lumotlar kirituvchisi - kompyuter klaviaturasi orqali amalga oshiriladigan va ko'zi ojizlar uchun ekran o'quvchi dasturlar (screen readers) yordamida bajarilishi mumkin bo'lgan kasb hisoblanadi.



Xalqaro tajribalarga ko'ra: Hindistondagi **“National Association for the Blind”** va AQShdagi **“Perkins School for the Blind”** IT kasblarni ko'zi ojiz yoshlar uchun ustuvor deb e'tirof etgan. Ko'rlar uchun maxsus brauzerlar (masalan, Lynx) va ekran o'quvchilar (JAWS, NVDA) ish faoliyatini olib bormoqda.

2. Musiqa va san'at sohasi.



Tavsiya etiladigan yo'nalishlar:

musiqa o'qituvchisi yoki ijrochisi;
audio prod'yuser yoki ovoz muharriri;
kompozitor yoki notalarni Brayl bilan yozuvchi.

Xalqaro tajriba: Ko'zi ojiz mashhur musiqa ustalari - **Ray Charles, Andrea Bocelli** va ko'plab boshqalar musiqani asosiy kasb sifatida tanlagan.

3. Telefon orqali mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi (call center operator).

Tavsiya etiladigan yo'nalishlar:

mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi operator;

telefon orqali maslahat beruvchi (psixolog);

Call-marketing sohasida ishlovchi mutaxassis;

Xalqaro tajriba: Buyuk Britaniyada "Royal National Institute of Blind People (RNIB)" ko'zi ojizlarni call-marketing va texnik yordam sohasiga faol jalb qilmoqda. Hindistonda **Enable India** orqali ko'zi ojizlar masofaviy call-markazlarda ishlamoqda.



4. Ijodiy va tahririy yo'nalishdagi kasblar.



Tavsiya etiladigan yo'nalishlar:

yozuvchi, tarjimon;

audio kitob muallifi;

Ijtimoiy media menejeri yoki kontent yaratuvchi.

Xalqaro tajriba: AQShdagi ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashgan "Hadley Institute for the Blind" yozuvchilikni mustaqil daromad manbai sifatida targ'ib qiladi.

5. Pedagogika va maslahat berish sohalari kasblari.

Tavsiya etiladigan yo'nalishlar:

ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus pedagog;

psixologiya yoki reabilitatsiya bo'yicha maslahatchi;

tarjimon (og'zaki yoki yozma).

Xalqaro tajriba: Kanada va Skandinaviyada ko'zi ojiz o'quvchilar tomonidan o'z tengdoshlariga maxsus metodikalarni o'rgatish keng yo'lga qo'yilgan.



6. Hunarmandchilik va san'at.



Tavsiya etiladigan yo'nalishlar:

Massaj terapiyasi;

Kulolchilik, to'qimachilik yoki zardo'zlik;


Qo'lda tayyorlanadigan buyumlar.

Xalqaro tajriba: hozirgi kunda Turkiya va Indoneziyada ko'zi ojiz yoshlar hunarmandchilik orqali daromad topmoqda.

Zaif ko‘radigan va keyinchalik ko‘r bo‘lgan bolalar uchun kasb tanlash

Zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar ko‘rish qobiliyatida muayyan cheklavlarga ega bo‘lsalarda, maxsus yoritish, kontrastli materiallar, yirik shriftlar va zamonaviy texnologiyalar yordamida turli kasblarni egallashlari mumkin.

Ular uchun tanlanadigan kasblar vizual yuklamani kamaytiradigan, hissiy, texnik yordam vositalari bilan qo‘llab-quvvatlangan, xavfsiz va oddiy ish sharoitlarida bajariladigan bo‘lishi zarur.



Kanadaning **“CNIB Foundation”** tomonidan dizayn va grafik dasturlarini yirik ekranlar bilan o‘rganish imkoniyati yaratilgan.

1. Kompyuter dizayneri

(Yirik kontrastli interfeysli dizaynlar). Maxsus kattalashtiruvchi dasturlar, ekran kontrastlarini sozlovchi texnologiyalar orqali ishlashi mumkin.

Xalqaro tajriba: AQShning **“American Printing House for the Blind”** tashkiloti yirik belgili dizaynlarni yaratish bo‘yicha zaif ko‘ruvchilarni o‘qitadi.



Access kabi dasturlar asosida masofaviy ishlashga o‘rgatish bo‘yicha kurslar mavjud.

2. Kompyuter operatori

(Ma’lumotlar bazasi bilan ishlovchi mutaxassis). Klaviaturada ishlash, yirik shriftlar, yuqori kontrastli monitorlar yordamida ishlashi mumkin.

Xalqaro tajriba: Germaniyada zaif ko‘ruvchilar uchun **Blista Center** kompyuter savodxonligi va ofis dasturlarini o‘rgatadi. Polshada zaif ko‘ruvchilarni **Excel**, **Word**,



3. Tikuvchi

(Kiyim-kechaklar, uy uchun mato buyumlari (parda, yostiq, choyshab va boshqalarni loyihalash, tikish, ta’mirlash va moslashtirish bilan shug‘ullanadi). Taktil sezish va yorug‘likda yaqin masofada ko‘ra olish qobiliyatiga asoslanadi.


Xalqaro tajriba: Vyetnamda zaif ko‘ruvchi ayollarni qo‘lda tikuvchilikka o‘rgatish orqali bandlik yaratilgan. O‘zbekistonda Toshkentdagi **“Ko‘zi ojizlar jamiyati”** da zaif ko‘ruvchilar oddiy chok mashinalarida ishlashmoqda.



podkastlar va audiokitob platformalari mavjud.

4. Radio boshlovchi (*Ovozli kontent yaratuvchi*). Nutq, eshituv, ifoda etish va texnik jihozlardan foydalanish orqali o'zlashtiriladi.

Xalqaro tajriba: Buyuk Britaniyaning **“RNIB”** fondi zaif ko'ruvchilarni radio-podkast va ovozli blog yaratishga o'rgatadi. Turkiyada zaif ko'radigan yoki to'liq ko'zi ojiz insonlar tomonidan yuritiladigan maxsus



xodimlar uchun ingliz va hind tilida telefon xizmat markazlari mavjud.


5. Telefon operatori yoki mijozlar bilan masofaviy aloqa mutaxassisi (*Call-center*). Suhbat, eshitish, savol-javob yuritish asosida bajariladi. Zarur holatda ekran kattalashtiruvchi vositalar ishlatiladi.

Xalqaro tajriba: AQShda **“National Industries for the Blind”** tashkiloti zaif ko'ruvchilar uchun call-centerlarni moslashtirgan. Hindistonda ko'zi zaif




6. Mobil texnologiyalar bo'yicha mutaxassis (*Smartfon va mobil ilovalar bilan ishlash*). Yirik belgilar, yuqori kontrastli interfeyslar, ovozli yordamchilar yordamida smartfonlarni boshqaradi.

Xalqaro tajriba: Avstraliyada **“Vision Australia”** tashkiloti zaif ko'ruvchilarni iOS/Android smartfonlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan kurslarga jalb qilmoqda.



7. Rassom (*Dekorativ-bezak san'ati rassomi*). Yorqin kontrastli ranglar bilan ishlash orqali rasm yoki tasvir yaratadi.

Xalqaro tajriba: Fransiyada zaif ko'ruvchi bolalar uchun yirik formatda rangli rasm chizish san'at-terapiya asosida yo'lga qo'yilgan. Braziliyada zaif ko'ruvchi bolalar uchun kontrastli shakllar va teksturalar asosida san'at darslari o'tiladi.



8. Non, meva-sabzavot sotuvchisi.

Maxsus belgilangan joyda, yaqin masofada ishlash, xotira va sezuv orqali mahsulotlarni ajratishi mumkin.

Xalqaro tajriba: Indoneziyada maxsus savdo rastalari zaif ko'ruvchi va aqli zaif shaxslar uchun tashkil qilingan. Gruziyada bunday yoshlar uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda kichik savdo joylari ochilgan.

Zaif ko'ruvchi o'quvchilar uchun kasb tanlashda vizual imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlaydigan texnologiyalar, qulay yoritish, kattalashtirilgan materiallar va kontrastli interfeyslar muhim o'rin tutadi. Ular to'liq mustaqil bo'lmisligi mumkin, ammo moslashtirilgan ish muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari mumkin bo'ladi.

Murakkab nuqsonli (ko'zi ojiz va zaif ko'radigan aqli zaif) o'quvchilar uchun

Murakkab nuqsonli o'quvchilar - ya'ni ko'zi ojiz yoki zaif ko'radigan, shuningdek, aqli zaif bo'lgan bolalar uchun kasb tanlashda quyidagi muhim mezonlar hisobga olinadi.

Mazkur mezonlarga:

oddiy, takrorlanuvchi amallarni o'z ichiga olgan faoliyat;
qo'l bilan sezish, eshitish va harakatga asoslangan ishlar;
xavfsiz, himoyalangan muhitda amalga oshiriladigan faoliyat;
kasbga tayyorlashda ko'p bosqichli, vizual yoki taktil materiallar bilan qo'llab-quvvatlanadigan yondashuvlar kiradi.

Tavsiya qilinadigan kasblar:

1. Oddiy ustaxona mutaxassisi (Paketlash, saralash, bog'lash).



Oddiy harakatlar takroran bajariladi, shuningdek, sezuvchanlik orqali ham bajarish mumkin.

Xalqaro tajriba: Germaniyaning “Lebenshilfe” markazlarida murakkab nuqsonli yoshlar uchun montajlash, qadoqlash, mahsulot saralash ishlari tashkil etilgan. Niderlandiyaning De Lork ustaxonalari bolalar uchun sensorik qulayliklarda ishlash imkonini beradi.




2. Kulol (*Qo‘l bilan ishlash orqali keramika va ganch buyumlar yasovchi mutaxassis*). Qo‘l bilan ishlash, taktil sezuvchanlik orqali shakllar yaratish, ijodiy faoliyat.

Xalqaro tajriba: Italiyaning Reggio Emilia modelida maxsus bolalar san‘at ustaxonalari orqali keramika ishlari bajariladi. AQShning “The Arc” jamiyati ko‘zi ojiz aqli zaif o‘quvchilarni san‘at-terapiya orqali kasbga yo‘naltiradi.

3. Massajchi. (*O‘rta darajadagi aqli zaiflik bo‘lsa*). Qo‘l sezuvchanligi yuqori bo‘lgan ko‘r bolalar oddiy massaj usullarini o‘zlashtira oladi.

Xalqaro tajriba: Xitoy va Yaponiyada ko‘zi ojiz o‘quvchilarga oddiy massaj amaliyotlari o‘rgatiladi, ular ba’zi psixik zaiflikka ega bo‘lsada, bu sohada ishlamoqda.



4. Bog‘bon (*Sabzavot yetishtirish, gullarga qarash*). Tabiiy muhitda ishlash, harakat qilish, hid, sezuv va tovush orqali anglanadi.



Xalqaro tajriba: Finlandiyada alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun terapevtik bog‘lar yaratilgan. Shvetsiyaning Green Care dasturlari orqali alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar bog‘dorchilik

va issiqxona ishlariga jalb qilinadi.

5. Oshpaz (*Taom tayyorlash, kesish, aralashtirish*). Bu kasbda oddiy jarayonlar sezish va eshitish orqali o‘zlashtiriladi.

Xalqaro tajriba: Fransiyada maxsus maktablarda nonvoychilik asoslari, xamir qorish, pishiriq bezatish kabi ishlar o‘rgatiladi. Turkiyada esa aqli zaifligi hamda ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar uchun oshpazlik ko‘nikmalarini beruvchi “Hayotga tayyorgarlik” kurslari mavjud.





6. Hunarmand (*To‘qish, bonchuk terish, arqon yig‘ish*). Taktil faoliyat hamda qo‘l sezuvchanligiga mos bo‘lishi kerak.

Xalqaro tajriba: Hindistonning Blind People’s Association tashkiloti ko‘rishida muammosi bo‘lgan aqli zaif bolalar uchun arqon yig‘ish, matolarni to‘qish, eshik pardalari yasash ishlarini yo‘lga qo‘ygan.

7. Ofis ishlari yordamchisi (*Qog‘oz ajratish, arxiv topshiriqlar*). Avtomatlashtirilgan muhitda oddiy topshiriqlarni bajara olishga asoslanadi.

Xalqaro tajriba: AQShda Goodwill Industries kabi ijtimoiy korxonalarda ko‘rishida muammosi bo‘lgan aqli zaif o‘quvchilar arxiv ishlari va hujjat tartiblashda ishlaydi.



Shuningdek, qo‘shimcha tavsiyalar:

har bir kasb multisensor yondashuv bilan o‘rgatilishi kerak (masalan, tinglab, ushlab ko‘rib, harakat bilan);

ko‘rgazmali maketlar, ovozli ko‘rsatmalar, taktil belgilar albatta bo‘lishi zarur;

ish jarayoni oddiy va xavfsiz muhitda tashkil etilishi lozim.

Texnologik yordam vositalari va moslashtirilgan muhit

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun kasb tanlashda texnologik yordam vositalari, moslashtirilgan muhit qanday bo‘lishi kerak degan savolga quyida keltirilgan yechimlar amaliy, real va O‘zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich joriy etish mumkin bo‘lgan standartlar asosida tavsiya qilinadi.

Texnologik yordam vositalari (Assistive Technology) orqali ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bola ko‘ra olmaganini texnologiya orqali “eshitishi” yoki “his qilishi” zarur.

Bu uchun zaruriy vositalar ekran o‘qiydigan dasturlar matnni ovozga aylantirib berishi (kompyuter va telefon uchun), brayl displey va brayl klaviatura matnni nuqta yozuvda o‘qish va yozish imkonini berilishi kerak.

Ovozli buyruqlar (voice control) qo‘lsiz ishlash, tezkor boshqaruv, ekran kattalashtiruvchi dasturlar qisman ko‘ruvchi bolalar uchun (kontrast + zoom), ovozli yozuv va diktofonlar topshiriqlarni eslab qolish va qayta ishlash uchun xizmat qilishi mumkin.

Moslashtirilgan o‘quv va ish muhiti - ko‘z uchun emas, sezgi orqali tushunishni qo‘llab quvvatlashi zarur.

Mazkur jarayon fizik muhit talablari:

taktil yo‘laklar (pol orqali yo‘nalish beruvchi chiziqlar);
brayl va yirik shriftli belgilar (eshiklar, xonalar);
o‘zgarmas joylashuv (mebel har doim bir xil joyda);
yaxshi akustika (aks-sado va shovqin minimal);
keskin yorug‘liksiz, kontrast ranglar (qisman ko‘ruvchilar uchun) tanlanishi lozim.

Kasb tanlashda texnologiya bilan moslik mezonlarini qo‘llash natijasida ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar:

IT va raqamli xizmatlar (operator, kontent tahrirlovchi, ovozli yordamchisi);
Call-markaz va masofaviy xizmatlar;
huquq, tarjima, matn bilan ishlash;
psixologik maslahat (audio formatda);
musiqa, ovoz dizayni, podkast;
hunarmandchilik (taktil sezgi asosida) kabilardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘qituvchi va maktab maslahatchilar uchun maxsus talab assistive technology bilan ishlash, ekran o‘qish dasturlari bilan dars o‘tish, topshiriqlarni audio va brayl formatda berish va baholashda tezlik emas, natija va mustaqillikni inobatga olishadi.

Ish joyiga moslashamiz emas “moslashtiraylik” tamoyili asosida ish ko‘rish. Ish beruvchi uchun aniq amalga oshiriladigan ishlar:

ekran o‘qiydigan dastur o‘rnatish;
ish joyini taktil belgilar bilan belgilash;
mos ish jadvali dastlabki 3–6 oy “job-coach” yordamidan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston sharoitida ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun kasb tanlashda asosiy formula: Texnologiya - moslashtirilgan muhit - to‘g‘ri maslahat = real kasb asosida tashkil qilish tavsiya qilinadi.

IV BOB

NUTQIDA OG'IR NUQSONLARI BO'LGAN
BOLALAR UCHUN KASBLAR

Nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash

Nutqida og'ir nuqsonlar (masalan, afaziya, dizartriya, mutizm, eshitish bilan bog'liq ikkilamchi nutq buzilishlari) bo'lgan bolalar uchun kasb tanlashda quyidagi asosiy mezonlarga ahamiyat berish zarur:

og'zaki muloqotni minimal talab qilishi;

texnologiya va vizual kommunikatsiyaga tayangan holda bajarilishi;

mustaqil yoki nazorat ostida individual bajarilishi;

ijodiy, intellektual yoki texnik ko'nikmalarni rivojlantiruvchi bo'lishi zarur.

Mazkur mezonlar asosida hozirgi axborotlashgan zamonda va yaqin 10 yillik istiqbol nuqtayi nazaridan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassisliklar tavsiya etiladi:



Mobil ilovalarni testlovchisi (App tester). Bu kasb nutqiy muloqotni talab qilmaydi. Foydalanuvchi interfeys, funksiyalarni tekshirishda belgilar va tugmalar orqali ishlaydi.

Xalqaro tajriba: AQSh va Estoniyada **“Specialisterne”** tashkiloti orqali nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar axborot texnologiyalari sohasiga jalb etiladi.



Grafik dizayner (Vizual dizayner). Bu sohada rasm, rang va shakllar bilan ishlash ko'nikmasi muhim hisoblanadi. Nutqiy muloqotdan ko'ra ijodiy fikrlash va texnik bilimlar talab etiladi.

Xalqaro tajriba: Kanadadagi **“Access Ability”** dasturi orqali bolalar grafik sohalariga tayyorlanmoqda.



Ma'lumotlar bazasi operatori (Data Entry Operator). Kompyuter klaviaturasi orqali ishlanadigan bu kasb nutqiy muloqotni talab qilmaydi. Asosiy ish ko'p hollarda raqamlar, matnlar yoki fayllarni tizimga kiritishdan iborat bo'ladi.

Xalqaro tajriba: Hindiston va Polshada joylashgan BPO (**Business Process Outsourcing**) markazlarida nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus bo'linmalar tashkil etilgan.



Kod yozuvchi (*Junior developer*).

Bu kasbda dasturlash, algoritmlar yaratish va yozma ifoda orqali tizimlar bilan ishlash asosiy faoliyat hisoblanadi. Ogʻzaki nutq oʻrnini yozma va mantiqiy fikrlash egallaydi.

Xalqaro tajriba: Germaniyada “Auticon” va “Inclusion Tech” kabi kompaniyalar nutqida ogʻir nuqsonlari boʻlgan bolalar, shuningdek, autistik

spektorida buzilishi boʻlgan bolalar bilan ishlash boʻyicha tajribaga ega.



3D modellash tiruvchi rassom (*Animator, 3D-model-lashtiruvchi*). Bu kasblar tasviriy sanʼat, animatsiya, 3D dizayn bilan bogʻliq boʻlib, vizual ifoda vositalari va grafik texnologiyalar orqali muloqot qilish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba: Yaponiya va Fransiyada sanʼat maktablari nutqida ogʻir nuqsonlari boʻlgan bolalar uchun maxsus kurslar ochgan.

Ofis hisobchisi (*Office Clerk - Financial Focus*) Bu ish Excel, Google Sheets kabi raqamli vositalarda bajariladi. Nutqdan koʻra eʼtibor, aniqlik va raqamlar bilan ishlashga qaratiladi.

Xalqaro tajriba: AQShda “Neurodiversity in Finance” loyihasi orqali autizm va nutqida muammosi boʻlgan bolalar moliya va hisob-kitob sohasida ishga qabul qilinmoqda.



Oʻyin testlovchisi (*Game tester*). Kompyuter oʻyinlaridagi xatoliklarni aniqlash, harakatlarni sinab koʻrish va vizual koʻrsatkichlar asosida baholashdan iborat boʻladi. Yozma muloqot yoki belgilangan shakllar orqali fikr bildirish yetarli hisoblanadi.

Xalqaro tajriba: Janubiy Koreya va Shvetsiyada oʻyin sanoati kompaniyalari alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar uchun testlovchi sifatida ish oʻrinlari yaratmoqda.

Hozirgi kunda nutq oʻrnini bosuvchi vositalar (AAC) keng rivojlanmoqda. Bu esa vizual va yozma muloqot talab qiladigan kasblarni qulaylashtiradi. Natijada inklyuzivlashgan ish oʻrinlari soni koʻpaymoqda. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Kanada va AQShda 2030-yilgacha **“Nogironligi boʻlgan shaxslar uchun maxsus mehnat strategiyalari”** ishlab chiqilgan.

Kundan kunga masofaviy ish (remote work) oʻrinlarini yaratish uchun imkoniyatlar ortib bormoqda. Bu bolalarning jismoniy va nutqiy cheklovlarini kamayishiga olib kelyapti.

Sun'iy intellekt, dizayn va kontent yaratuvchilik sohasidagi vositalar nutqsiz ifodalash shakllarini, jumladan chatbotlar, vizual interfeyslarni, samarali muloqot vositasi sifatida qo'llab-quvvatlamoda.

Nutqiy nuqsoni og'ir bo'lgan bolalar uchun texnologik, ijodiy va analitik yo'nalishdagi kasblar eng maqbul hisoblanadi. Yaqin 10 yillik reja shuni ko'rsatadiki, axborot, dizayn va masofaviy ish sohalarida ularning bandlik imkoniyatlari tobora kengayadi. Muhimi, ular uchun maxsus tayyorlov kurslari, modifikatsiyalangan ish sharoitlari va kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangan muhitni yaratiladi.

Raqamli, ijodiy va masofaviy ish imkoniyatlari

Og‘zaki nutq talab qilinmaydigan, yoki texnologiya orqali kompensatsiya qilinadigan kasblarni tanlash lozim.

Nutqida og‘ir nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun kasb tanlashda asosiy mezon og‘zaki nutq emas, balki bajariladigan funksiyaning mavjudligi hisoblanadi. Agar bola o‘z fikrini yozma, vizual, grafik yoki texnologik vositalar orqali ifodalay olsa, u mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishi mumkin.

Kasbga yo‘naltirish jarayonida yozma muloqotga asoslangan, aniq texnik topshiriqlar bilan ishlanadigan va og‘zaki taqdimotni talab qilmaydigan raqamli kasblarga ustuvorlik beriladi. Bunday kasblarga grafik dizayn, ma‘lumotlar bilan ishlash, kontent moderatsiyasi, veb-saytlarni boshqarish va testlovchi yordamchisi kabi yo‘nalishlar kiradi. Ushbu faoliyat turlarida natija muhim bo‘lib, nutqiy yuklama minimal darajada bo‘ladi.

Ijodiy faoliyat turlarida esa bolaning nutqi emas, tayyor mahsuloti baholanadi. Raqamli rasm, illustratsiya, animatsiya elementlari, qo‘l mehnati, dizayn, tikuvchilik va maket ishlari nutqsiz ifoda imkonini beruvchi samarali yo‘nalishlar hisoblanadi. Bu holatda bolaning ijodiy faoliyati uning asosiy muloqot vositasiga aylanadi.

Masofaviy ish shakli nutqiy stressni kamaytirgan holda barqaror bandlikni ta‘minlaydi. Uy sharoitida yoki tanish muhitda, chat va yozma topshiriqlar orqali ishlash imkoniyati bolaning psixologik holati va ish samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda alternativ muloqot vositalari - piktogrammalar, yozma interfeyslar, matndan-ovozga aytlantiradigan dasturlar, tayyor javob shablonlari va tezkor tugmalar majburiy texnologik yordam sifatida qo‘llanilishi lozim. Bunda asosiy tamoyil nutqni majburlash emas, balki muqobil muloqot shakllarini qabul qilishdir.

Ta‘lim va ish muhitida og‘zaki chiqishlar, tezkor nutq va taqdimotlar majburiy bo‘lmasligi, topshiriqlar yozma yoki vizual shaklda berilishi, baholash esa ish natijasi va barqarorlik mezonlari asosida amalga oshirilishi zarur.

V BOB

TAYANCH-HARAKAT APPARATIDA NUQSONI
BO'LGAN BOLALAR UCHUN KASB TANLASH

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (*Nogironlik aravachasida harakatlanadigan yoki jismoniy faoliyati cheklanganlar*) uchun moslashtirilgan, ijodiy yondashuvni talab qiluvchi, aqliy salohiyatga tayanadigan yoki zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq kasblarni tanlash eng maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kasblarni tanlashda asosiy tanlov mezonlari sifatida:

jismoniy harakat cheklovlari bilan mos keladigan ish sharoitlariga;
uzoq muddatli o'sish va rivojlanish imkoniyatlariga;
uyda yoki masofadan ishlashiga;
moslashtirilgan texnika va infratuzilmalarning mavjudligiga alohida ahamiyat beriladi.

**Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tavsiya etiladigan yo'nalishlar bo'yicha mutaxassisliklar:**

1. Grafik dizayner, veb-dizayner, UI/UX mutaxassisi (*Foydalanuvchi interfeysi (UI - User Interface) va foydalanuvchi tajribasi (UX - User Experience) dizayni bilan shug'ullanuvchi mutaxassis nazarda tutiladi*). Kompyuter orqali bajariladigan, jismoniy

harakatni talab qilmaydigan ijodiy yondashiladigan kasb hisoblanadi.

Xalqaro tajriba: AQSh va Yevropada ko'plab tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar **Fiverr, Upwork** kabi onlayn platformalarda grafik dizayn xizmatlarini taklif qilishadi.

2. IT mutaxassisi (*Dasturchi, testlovchi, tizim administratori*). Masofaviy ishlash imkoniyatini taqdim etadi, shuningdek, tayanch harakatidagi cheklovlariga qaramasdan yuqori daromad olish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba: Hindiston va AQShda tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus IT-akademiylari faoliyat yuritadi (*masalan, **Enable India***).



3. Muharrir, tarjimon, kontent yaratuvchi (*blogger, yozuvchi*). Jismoniy harakat emas, aqliy faoliyat talab qilinadi.

Xalqaro tajriba: Buyuk Britaniyada "**Disabled Writers**" tarmog'i tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan yozuvchilarga nashriyot bilan ishlashda ko'maklashadi.

4. Kutubxonachi, arxivchi, ma'lumotlar bazasi operatori. Harakat erkinligi cheklangan bo'lsa-da, tinch va muvozanatli sharoitda ishlash imkonini beradi.

Xalqaro tajriba: Germaniyada ko'plab kutubxonalar tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan ish joylarini yaratgan.



5. Onlayn ishlaydigan o'qituvchi, repetitor yoki konsultant. Onlayn ishlash, o'z vaqtini samarali boshqarish va maxsus ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Xalqaro tajriba: AQShdagi "National Center on Accessible Educational Materials" tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus o'qituvchilik platformalarini rivojlantirgan.



6. Chizmalar

asosida ishlovchi texnik (Arxitektura loyihalovchisi). Kompyuter yordamida amalga oshiriladigan ishlarni o'z ichiga oladi, uyda yoki maxsus moslashtirilgan joyda bajarilishi mumkin.

Xalqaro tajriba: Kanada hukumati tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mos

arxitektura dizayni kurslarini moliyalashtiradi.



7. Hunarmand

(Zargarlik, To'qimachilik, Miniatyura san'ati). Maxsus o'quv vositalari orqali qo'lda bajariladigan, mulohazali va diqqat talab qiluvchi kasb hisoblanadi.

Xalqaro tajriba: Yaponiyada "Barrier-free" (to'siqsiz) ish joylari hunarmand tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun keng joriy qilingan.



8. Hisobchi (Buxgalter, Moliyaviy tahlilchi). Raqamlar bilan ishlash, moliyaviy tahlil, Excel va 1C kabi dasturlar. Onlayn buxgalteriya xizmatlarini taqdim etadi.

Xalqaro tajriba: Xalqaro moliya sertifikatlari (Masalan, ACCA) nogironligi bo'lgan shaxslarga ochiq bo'ladi.

9. Audio-montajchi (*Video-montajchi*). Videoni kesish, tahrirlash, sarlavha va effektlar qo‘shish kabi ishlar amalga oshiriladi. YouTube uchun kontent, reklama roliklari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Xalqaro tajriba: Fiverr va Upwork’da alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun video-editorlar yaratishda juda faollik ko‘rsatishadi.



10. O‘yin yaratuvchi (*Game Developer*). Kompyuter grafikasi, dasturlashni o‘z ichiga oladi, shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Mobil, kompyuter va onlayn o‘yinlarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro tajriba: Indie o‘yin kompaniyalarida tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan ishlab chiquvchilar soni juda ko‘p.

11. Raqamli marketing mutaxassisi (*Digital marketing*). Internetda brend targ‘iboti, kontent yaratuvchanlik, analitika bilan shug‘ullaniladi.

SMM, SEO, email marketing, reklama platformalari bilan ishlash kabi turlari mavjud bo‘ladi.

Xalqaro tajriba: Google Digital Garage va HubSpot tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun maxsus kurslar taqdim qiladi.



Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun kasb tanlashda xalqaro va mahalliy muvaffaqiyatli amaliyotlar

Xalqaro tajribada tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar va yoshlarni kasbga yo'naltirishda qo'llab-quvvatlovchi bandlik (Supported Employment) modeli eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Ushbu model International Labour Organization tomonidan keng targ'ib qilinib, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Skandinaviya davlatlarida muvaffaqiyatli joriy etilgan. Modelga ko'ra, shaxs oddiy mehnat bozoriga kiradi, ish joyi moslashtiriladi, unga job-coach (mehnat murabbiyi) biriktiriladi va dastlabki 3 - 6 oy davomida doimiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatiladi.

Natijada ishda uzoq muddat saqlanib qolish ko'rsatkichi 60-70 foizgacha oshadi. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida kasbiy ta'lim, korxona va psixolog hamkorligi asosida joriy etilishi mumkin.

Shuningdek, Universal Design for Learning (UDL) asosidagi kasbiy ta'lim modeli alohida e'tiborga loyiq. CAST tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv Kanadada va AQShda keng qo'llanilib, ta'lim va kasbiy topshiriqlarni boshidan mos tarzda loyihalashni nazarda tutadi. Natijada keyinchalik alohida moslashtirishga ehtiyoj qolmaydi. Masofadan bajariladigan topshiriqlar, klaviatura, sensor yoki ovoz orqali boshqariladigan ishlar bu modelning amaliy misollaridir. UDL modeli IT, dizayn va operatorlik yo'nalishlarida O'zbekiston uchun ham qulaydir.

Zamonaviy mehnat bozorida masofaviy va gibrid bandlik ham muhim o'rin tutadi. World Bank tadqiqotlariga ko'ra, harakatida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun masofaviy ish eng barqaror bandlik shakli hisoblanadi.

Ushbu modelda ish uyda yoki moslashtirilgan muhitda bajariladi, ish vaqti qat'iy belgilanmaydi va baholash ish natijasiga asoslanadi. IT, dizayn, onlayn xizmatlar va raqamli boshqaruv kabi kasblarda jismoniy to'siqlar deyarli bartaraf etiladi.

O'zbekiston sharoitida ham ijobiy tajribalar shakllanib bormoqda. So'nggi yillarda ayrim kollej va texnikumlarda tayanch-harakatida nuqsoni bo'lgan yoshlar uchun IT va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida moslashtirilgan kasbiy modullar joriy etilmoqda. Ushbu muassasalarda pandus va liftlar, mos sinf xonalari, yozma va raqamli baholash tizimi yo'lga qo'yilgan. Mazkur tajribani hududlar kesimida kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, onlayn platformalar va nodavlat ta'lim markazlari orqali nogironligi bo'lgan yoshlarning IT va frilanserlik faoliyatiga kirib borishi kuzatilmoqda. Bu yo'nalishda ish joyiga borish talab etilmaydi, muloqot asosan yozma shaklda olib boriladi va baholash jismoniy imkoniyatga emas, balki raqamli kompetensiyaga asoslanadi.

Bundan tashqari, ayrim nodavlat notijorat tashkilotlari va ijtimoiy tashabbuslar doirasida tikuvchilik, dizayn va qo'l mehnati yo'nalishlarida ijtimoiy korxonalar va moslashtirilgan ustaxonalar tashkil etilmoqda. Bu muhitda ish sur'ati individual, ish jadvali moslashuvchan va psixologik qo'llab-quvvatlash mavjud bo'ladi. Biroq ushbu amaliyotni keng miqyosda rivojlantirish uchun davlat buyurtmasi va tizimli qo'llab-quvvatlash zarur.

VI BOB

MURAKKAB NUQSONLI BOLALARNI
KASBGA YO‘NALTIRISH**Murakkab nuqsonli (tayanch-harakat a‘zolarida nuqsoni bo‘lgan aqli zaif) bolalar uchun kasb tanlash**

Murakkab nuqsonli - ya‘ni tayanch-harakat a‘zolarida nuqsoni bo‘lgan va aqliy zaifligi mavjud bolalar uchun kasb tanlashda ularning intellektual, jismoniy va psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, oddiy, amaliy, sekin o‘zlashtiriladigan, hayotiy faoliyatga yaqin kasblar tavsiya etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kasb tanlashdagi asosiy tamoyillar:

moslashtirilgan kasbiy ta‘lim - bolalarning imkoniyatlarini hisobga olib, qulay, bosqichma-bosqich, ko‘nikmaga asoslangan o‘qitish tizimini o‘z ichiga olishi kerak;

qo‘l bilan bajariladigan, avtomatlashtirilmagan amaliy ishlar – murakkab fikr yuritishni talab qilmaydigan, lekin mustahkam qo‘shimcha nazorat ostida bajariladigan ishlarni o‘z ichiga oladi;

tashkiliy, toza va xavfsiz muhitda bajariladigan yumushlar – tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun xavfli jihozlarsiz ish muhiti zarur;

davlat va xususiy sektor tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ijtimoiy integratsiyani o‘z ichiga oladi.

Murakkab nuqsonli bolalar uchun **ijodiy, amaliy va nazorat qilib turiladigan kasblar** tavsiya qilinadi. Eng muhimi, ularning **mustaqilligini oshirish, ijtimoiy integratsiyasini ta‘minlash, munosib daromad manbaini yaratish**dir. Kasblar **qadam-baqadam, individual (shaxsiy) dasturni hisobga olgan holda** o‘rgatilishi maqsadga muvofiq.

Tavsiya etiladigan kasblar:

1. Yengil ishlab chiqarish qismlarini yig‘uvchisi. Bu kasb oddiy qismlarni yig‘ish - konvert tayyorlash, qadoqlash, tugma tikish kabi mexanik harakatlari kam bo‘lgan ishlarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro tajriba: Germaniya va Yaponiyada bu turdagi ishlar **“Sheltered workshops”** (Yopiq maxsus ishlab chiqarish ustaxonalari) tizimi orqali amalga oshiriladi.



2. Kashtachi. Oddiy choklar tikish, bezakli naqshlar bilan ishlash kabi faoliyatlar bo‘lib, bu ishlar sekin o‘zlashtiriladi. Shuning uchun ham bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Xalqaro tajriba: Fransiyada **IME (Institut Médico-Éducatif)** markazlarida murakkab nuqsonli (tayanch-harakat a‘zolarida nuqsoni bo‘lgan aqli zaif) bolalar bu kasbga o‘rgatiladi.

3. Tozalik xizmatlari. Moslashtirilgan vositalar bilan yengil sirtki qismlarni tozalashni o'z ichiga oladi. Bu kasb xavfsiz va ko'p harakat talab qilmaydigan ishlarga asoslanadi.

Xalqaro tajriba: AQShda **“AbilityOne”** dasturi orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar shu yo'nalishda ish bilan ta'minlanadi.



4. Bog'bon. Mayda ko'chatlar ekish, sug'orish, yer yumshatish kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Tinch, barqaror va terapevtik muhit yaratiladi.

Xalqaro tajriba: Kanadada **“Greenhouse training for disabled”** loyihasi orqali bolalar bog'dorchilikka jalb qilinadi.



5. Kulol. (Keramika, loy bilan ishlash). Ijodiy faoliyat - loy bilan ishlash, rasm chizish va boshqa shunga o'xshash ishlar fikrlashni kuchaytirib, terapevtik ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba: Italiyadagi **Reggio Emilia markazlarida** bu yo'nalish kuchli rivojlangan.



6. Ofis ishlarida

yordamchi. Konvertga narsalarni solish, hujjatlarni ajratish, raqamlash - bu takroriy, yengil va doimiy nazoratda bajariladigan ishlar hisoblanadi.

Xalqaro tajriba: AQSH va Avstraliyada **“Inclusive Employment”** dasturlari orqali murakkab nuqsonli (tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni

bo'lgan aqli zaif) bolalarga shu kasblar o'rgatiladi.

7. Qadoqlovchi (Packaging worker). Mahsulotlarni qadoqlash, belgilar yopishtirish, oddiy mahsulot saralash ishlarini o'z ichiga oladi.

Xalqaro tajriba: **Shveytsariya**da bu yo'nalishda maxsus o'quv-laboratoriyalar tashkil etilgan.



Murakkab nuqsonli bolalar uchun kasbga yo‘naltirishda himoyalangan va qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitlari

Murakkab nuqsonli bolalar (*bir nechta rivojlanish cheklovlari birgalikda kuzatiladigan holatlar*) uchun kasbga yo‘naltirish oddiy mehnat bozoriga bevosita chiqish emas, balki bosqichma-bosqich moslashuv tamoyiliga asoslanishi lozim. Ushbu jarayonda ikki asosiy model mavjud: himoyalangan (sheltered) va qo‘llab-quvvatlovchi (supported) ish muhitlari.

Himoyalangan ish muhiti (Sheltered Employment) murakkab nuqsonli shaxslar uchun maxsus tashkil etilgan, xavfsiz va past stressli mehnat muhitidir. Bunda ishlab chiqarishdan ko‘ra shaxsni rivojlantirish va bandlikning o‘zi ustuvor hisoblanadi. Ushbu muhit alohida ustaxona yoki markazlarda tashkil etilib, ish sur‘ati individual bo‘ladi, vazifalar oddiy va takroriy xarakterga ega bo‘ladi hamda pedagog va psixologlar tomonidan doimiy nazorat qilinadi.

Himoyalangan muhit og‘ir intellektual nuqsonlari, autizm va intellektual cheklovlar kombinatsiyasi, shuningdek, nutq va harakat nuqsonlari birgalikda namoyon bo‘lgan bolalar uchun mos keladi. Uning asosiy afzalligi - xavfsizlik va emotsional barqarorlikni ta‘minlagan holda mehnatga tayyorlash bosqichi sifatida xizmat qilishidir.

Shu bilan birga, bu model ochiq mehnat bozoriga chiqish imkoniyatini cheklaydi.

Qo‘llab-quvvatlovchi ish muhiti (Supported Employment) esa murakkab nuqsonli shaxsning oddiy mehnat bozorida ishlashini nazarda tutadi, biroq bu jarayon maxsus yordam va moslashuv bilan ta‘minlanadi. International Labour Organization tavsiyalariga ko‘ra, ushbu model nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun eng barqaror va inklyuziv yondashuv hisoblanadi. Bu muhitda shaxs oddiy ish joyida ishlaydi, unga moslashtirilgan vazifalar beriladi, job-coach (mehnat murabbiyi) biriktiriladi, ish vaqti va yuklamasi moslashtiriladi hamda ish beruvchi bilan doimiy hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Model nisbatan mustaqil, oddiy ko‘rsatmalarni tushuna oladigan va qo‘llab-quvvatlash sharoitida ishlay oladigan yoshlar uchun mosdir. Uning afzalligi - haqiqiy ijtimoiy integratsiya va uzoq muddatli bandlik ehtimolining yuqoriligidir, biroq dastlabki bosqichda ko‘proq resurs talab etadi.

O‘zbekiston sharoitida eng maqbul yondashuv ushbu ikki modelni qarama-qarshi emas, balki ketma-ket bosqichlar sifatida joriy etishdan iborat.

Tavsiya etiladigan tizim: himoyalangan ustaxona bilan birga yarim qo‘llab-quvvatlovchi ish hamda qo‘llab-quvvatlovchi bandlikdir.

Buning uchun maxsus maktab va markazlar qoshida himoyalangan ustaxonalar tashkil etish, kollej va texnikumlarda moslashtirilgan amaliyotlarni yo‘lga qo‘yish, ish joylarida job-coach institutini joriy etish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur.

VII BOB

PSIXIK RIVOJLANISHI SUST BOLALAR
UCHUN KASBLAR

Psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash

Psixik rivojlanishi sust (aqliy rivojlanishi me'yordan orqada qolgan) bolalar uchun kasb tanlashda ularning aqliy, jismoniy va ijtimoiy salohiyatidan kelib chiqish muhim hisoblanadi.

Psixik rivojlanishi sust bo'lgan o'quvchilarga munosib kasb tanlashda umumiy asoslar sifatida: Oddiy, takroriy, nazoratli vazifalar bo'lishi, barqaror ish muhiti tashkil qilinishi, qo'l mehnatiga asoslangan ijodiy yoki ishlab chiqarish yo'nalishida amalga oshirilishi, ijtimoiy integratsiya ta'minlangan bo'lishi lozim.

Dolzarb va real hayotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan kasblar sifatida quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. Tikuvchi (Oddiy tikuv ishlari uchun). Takroriy harakatlarni o'z ichiga oladi, xotirani kuchli ishga solmaydi, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Xalqaro tajriba: Fransiyada Psixik rivojlanishi sust bo'lgan o'quvchilari uchun tikuvchilik **IME** (Institut Médico-Éducatif) markazlarida o'rgatiladi.

O'zbekistonda mahalliy tikuv ustaxonalari, uy sharoitidagi ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etishi mumkin.



2. Yengil narsalarni qadoqlovchi operator. Oddiy shaklli mahsulotlarni qadoqlashi, sanashi, belgi yopishtirishi tavsiya qilinadi.

Xalqaro tajriba: Germaniyada **“Sheltered workshops”** orqali joriy etilgan. O'zbekistonda farmatsevtika, gigiyena va non mahsulotlarida qadoqlovchi sifatida ishlashi mumkin.

3. Oshpaz yordamchisi. Oddiy tayyorlov ishlari, kesish, yuvish kabi funksiyalarni o'zlashtirish mumkin.

Xalqaro tajriba: AQShdagi **“Project SEARCH”** dasturiga kiritilgan.

O'zbekistonda aktab, bog'cha vas hu kabi kichik oshxonalarda yordamchi sifatida ishlash tavsiya qilinadi.



4. Issiqxona ishchisi (Issiqxonada o'stiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari parvarishi). Tinch muhit bo'ladi, mayda qo'l motorikasi rivojlanadi, barqaror ritmda ishlaydi.

Xalqaro tajriba: Kanada - **“Greenhouse training”** loyihasi ish faoliyatini misol keltirish mumkin.

5. Obodonlashtirish ishchisi. Yengil sirtlarni artishda faol ishtirok etadi, qaytaruvchan harakatlarni o‘z ichiga oladi, nazorat ostida ishlaydi.

Xalqaro tajriba: AQShda “**Ability One**” dasturi orqali qo‘llab-quvvatlanadi.



6. Kulol (*Keramika va loy bilan ishlash, san’at-terapiya asosida*). Bolaning ijodiy o‘zini ifodalashiga, stressni kamaytirishiga va ichki motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Xalqaro tajriba: Italiyada Reggio Emilia metodikasi asosida san’at orqali rivojlantirish keng qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda amaliy san’at to‘garaklari, bolalar markazlari va ustaxonalarda amalga oshirish mumkin.

7. Kashtachi (*Bezak tikish ishlari*). Mayda harakatlarni rivojlantiradi, ish sekin va bolaga mos tempda bajariladi.

Xalqaro tajriba: Fransiyada **IME** (Institut Médico-Éducatif) markazlarida bolalar uchun mashg‘ulot sifatida yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonda uy sharoitida, buyurtma asosida yoki maxsus ustaxonalarda kashta tikish orqali ishga joylashish mumkin.



8. Ofis ishlarida yordamchi (*Arxivlash, konvertga solish va hokazo*). Tizimli va takroriy vazifalar bolaga tushunarli bo‘ladi, aqliy yuklama kam talab qiladi.

Xalqaro tajriba: Avstraliyada **Inclusive Employment** dasturlari orqali bunday lavozimlar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan.

9. Bezakchi (*Qo‘lda yig‘iladigan ishlar*). Diqqatni jamlash, sabr va tartibli harakat qilishni o‘rgatadi, mayda qo‘l motorikasi rivojlanadi.

Xalqaro tajriba: Shveytsariyada maxsus o‘quv-laboratoriyalar orqali ushbu faoliyat o‘rgatiladi.

O‘zbekistonda kiyim-kechak, bezak buyumlari yoki suvenirilar ishlab chiqarishda qo‘llash mumkin.



10. Saralovchi ishchi (*Meva, sabzavot, yengil buyumlar*). Vizuallashtirish asosida bajariladigan yengil jismoniy faoliyatni, ko‘rishni va tasniflashni rivojlantiradi.

Xalqaro tajriba: Qo‘lda yig‘iladigan ishlar Daniya va Niderlandiyada **Supported Employment** dasturlari orqali amalga oshiriladi.

Bu kasblar psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalarga tavsiya qilishda quyidagi asosiy sabablarga tayanilgan:

1. Amaliy va oddiy ko'nikmalarga asoslanganligi. Hozirgi vaqtda yuqori texnologiyali kasblarni to'liq moslashtirish tizimi rivojlanmaganligi uchun soddalashtirilgan, takroriy va aniq tartibli kasblar, masalan, tikuvchilik, qadoqlash, tozalik xizmatlari bunday bolalar uchun real va bajarilishi mumkin bo'lgan kasblar sirasiga kiradi.

2. Mahalliy bozor talabiga mosligi. O'zbekistonda kichik ustaxonalar, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va qadoqlash sohalari keng tarqalgan. Aynan shu sohalarda oddiy vazifalarni bajara oladigan, intizomli, ishonchli yordamchilarga talab katta bo'lmoqda. Bu esa psixik rivojlanishida sustlik bo'lgan shaxslar uchun ish topish imkoniyatini oshiradi.

3. Moslashtirilgan muhit yaratish osonligi. Bu kasblar uchun maxsus jihozlar, murakkab texnologiyalar shart emas. Ularni maktab-internat, kasb-hunar kollejlari yoki ishlab chiqarish ustaxonalarida o'rgatish va tatbiq qilish nisbatan oson kechadi.

4. Ijodiy va terapevtik jihatdan foydali. Masalan, keramika, kashta tikish, bog'dorchilik: Bolalarning psixologik holatini yaxshilaydi, moslashuvchanlikni oshiradi, ijod orqali o'zini ifodalashga imkon beradi.

5. Xalqaro tajribada o'zini oqlagan. Yevropa, AQSh, Kanada, Yaponiya kabi mamlakatlarda bu kasblar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ko'p yillik tajribada sinovdan o'tgan. Ular nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan ishlab chiqarish maydonlari, ishlab chiqaruvchi ustaxona (sheltered workshop) va reabilitatsiya markazlari orqali bu ishlarni tizimli tashkil etgan.

6. Ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi. Bu kasblar orqali psixik rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar: Jamiyat uchun foydali a'zo bo'lishi mumkin, ijtimoiylashadi, ya'ni o'z tengdoshlari bilan muloqot qiladi, mustaqillikka erishadi - bu ruhiy salomatlik uchun juda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun kasb tanlashda ijtimoiy integratsiya va mehnat orqali moslashuv masalalari

Psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun kasb tanlash jarayoni oddiy mehnat bozoriga tezkor moslashishni emas, balki ijtimoiy integratsiya va mehnat faoliyati orqali bosqichma-bosqich moslashuvni ta'minlashga qaratilishi lozim. Bunda asosiy mezon bolaning akademik darajasi emas, balki uning kundalik hayot va mehnat jarayonida moslashish imkoniyatlari hisoblanadi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, xususan International Labour Organization tavsiyalarida ta'kidlanishicha, psixik rivojlanishi sust shaxslar uchun eng samarali yondashuv - bu oddiy mehnat muhitida, ammo moslashtirilgan sharoitlarda ishlash imkonini yaratishdir. Mehnat faoliyati ushbu bolalar uchun nafaqat daromad manbai, balki ijtimoiy qoidalarni o'rganish, mas'uliyat hissini shakllantirish va jamiyatga tegishlilik tuyg'usini rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Kasb tanlashda bolaga mos sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitlarga ish vazifalarining soddalashtirilgan va aniq bo'lishi, ish sur'atining individual moslashtirilishi, doimiy qayta tushuntirish va ko'rsatmalar berilishi, shuningdek, pedagog yoki mehnat murabbiyi tomonidan muntazam qo'llab-quvvatlash kiradi. Mehnat jarayonida bolaning xatoga yo'l qo'yishiga nisbatan jazolovchi emas, balki o'rgatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi yondashuv ustuvor bo'lishi zarur.

Ijtimoiy integratsiya jarayoni aynan mehnat faoliyati orqali samaraliroq kechadi. Jamoada ishlash, oddiy mehnat munosabatlariga kirishish, vazifani oxiriga yetkazish va natija uchun javob berish psixik rivojlanishi sust bolalarda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantiradi. Shu sababli kasbga yo'naltirish jarayoni faqat kasb tanlash bilan cheklanmay, balki ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi sifatida ko'rilishi lozim.

Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun kasbga yo'naltirishda asosiy **savol “Qaysi kasbni egallaydi?” emas, balki: “Qanday sharoitda ishlay olsa - muvaffaqiyatli bo'ladi?”** degan yondashuv ustuvor bo'lishi kerak.

Moslashtirilgan mehnat muhiti, doimiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiyaga yo'naltirilgan ish faoliyati ushbu bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

VIII BOB

AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONLAR BO'LGAN
BOLALAR UCHUN KASBLAR


Aqli zaif bolalar bolalar uchun mos kasb tanlash

Ish faoliyati bilan band qilish aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarga quyidagi uchta asosiy foyda keltirishi aniqlangan.



1. Mustaqil qaror qabul qilish hissini oshiradi. Har kuni ishga borib, o'z vazifalarini bajarish davomida mas'uliyat hissi va mustaqillik shakllanadi. O'z mehnati evaziga topgan daromadi orqali moliyaviy erkinlikka ega bo'ladi.

2. Yangi ko'nikmalarni egallaydi. Kasb-hunar orqali avval bajarmagan ishlarini bajarishni o'rganadi, yangi tajriba orttiradi va kasbiy maqsadlar qo'yishga ilhom oladi. Shuning uchun ish joylari doimiy treninglar va murabbiylik xizmatlarini taklif qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



3. O'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Ishga joylashish orqali o'zini foydali his qiladi, ijtimoiy aloqalar o'rnatadi va shu orqali jamoaning bir qismiga aylanadi. Bu esa o'z-o'zini qadrlash tuyg'usini kuchaytiradi, ijtimoiy mavqe va hurmati ortadi.

Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarga ish topishda quyidagi yordam xizmatlarni taklif etish lozim:

ishga ariza topshirish uchun zarur hujjatlarni tayyorlashda yordam berish;

ishga joylashish uchun tashkil qilingan suhbatlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun maslahatlar berib borish;

ish joyiga moslashishida hamda ish joyida kerakli o'zgartirish kiritish uchun;

ishga joylashgandan keyin ham doimiy yordam va maslahatlar berib borish.



Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning o'ziga xos iste'dod va qiziqishlari bo'ladi. Ularga mos ishni topishda quyidagi savollarni tavsiya qilish mumkin.

Odamlarga yordam berishni yoqtirasizmi?

Oddiy narsalarga ham e'tiborlimisiz?

Dizayn yoki rasm chizish bilan shug'ullanasizmi?

Qaysi hayvonlarni yoqtirasiz, ularga qarovchi bo'lishni xohlaysizmi?

O'zingizni qaysi muhitda yaxshi his qilasiz?

Sizga ish jadvali kerak deb o'ylaysizmi?

Tabiat qo'ynida ishlashni yoqtirasizmi?

Tinch va osoyishta joyda ishlashni afzal ko'rasizmi?
Og'zaki ko'rsatmalarni tushunishda qiynalasizmi?
Yangi narsalarni o'rganishingizda ko'proq vaqt ketadimi?
O'z fikrlaringizni ifoda etishda qiynalasizmi?

Aqliy zaif bolalar uchun kasb tanlashda ularning funksional qobiliyatlari (ya'ni, nimani mustaqil bajara olishi), ijtimoiy ko'nikmalari, qiziqishlari qo'llab-quvvatlaydigan muhit mavjudligi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Bu bolalar uchun kasb tanlashda:

amaliy bajarilishi;

oddiy, takrorlanuvchi vazifalarga boyligi;

natijasi tezda ko'rinishiga alohida ahamiyat beriladi.

Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun tavsiya etiladigan kasblar

1. Bog'bon yordamchisi (yashil zonalarda ishlovchi).

Tabiat bilan bevosita tillashish, jismoniy harakatlar, oddiy va takrorlanuvchi topshiriqlar mavjud bo'ladi. O'simliklarni sug'orish, begona o'tlardan tozalash, gul ekish kabi ishlar bolalarga tinch va ijobiy muhitda ishlash imkonini beradi.

Xalqaro misol. Gollandiyada **“Green Jobs for All”** dasturi orqali aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan yoshlar bog'dorchilik va landshaft dizaynida oddiy ishlar bilan band qilinmoqda.

Yaponiyada maxsus maktab bitiruvchilari ko'pincha ko'kalamzorlashtirish bo'yicha shahar loyihalarida ishtirok etishadi.



2. Obodonlashtirish ishchisi (jamoat joylari, ofislar, maktablar).

Ishlar aniq, belgilangan rejada, takrorlanuvchi harakatlar bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bolalar tartib va tozalikni saqlash orqali mustaqillik, javobgarlikni his qiladi.

Xalqaro misol: Buyuk Britaniyada **“Mencap”** tashkiloti tomonidan aqli zaif yoshlarga maktablar va korxonalarda tozalik obodonlashtirish bo'yicha doimiy ish o'rinlari yaratilgan.



3. Oshpaz yordamchisi (nonvoylik, sabzavot tozalash, ovqat tayyorlashda yordamchi).

Ko'plab kichik vazifalar berilishi mumkin: kartoshka tozalash, stol artish, non yopishda ishtirok etish va boshqalar.

O'rgatish va murakkablashtirish jarayoni bosqichma-bosqich, amaliy tarzda olib boriladi.

Xalqaro misol: AQShda **“Project SEARCH”** orqali aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar kasalxonalar oshxonasida yordamchi sifatida ishlaydi. Germaniyaning maxsus kasb-hunar kollejlari nonvoychilik sohasida qisqa muddatli kurslar o'tkaziladi.

4. Tovar joylashtiruvchi (Supermarketda javon to'ldiruvchi).

Aniq topshiriq: mahsulotlarni belgilangan javonga tartib bilan joylashtirish, jamoada ishlash, muloqot qilish, ish joyida harakatlanishni o'rgatadi.

Xalqaro misol: Avstraliyada **“Woolworths”** supermarketlar tarmog'i aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun doimiy ish o'rinlarini ajratgan. Kanadada **“Ready, Willing & Able”** dasturi orqali bolalar yirik supermarketlarda ish bilan ta'minlangan.





5. Yelimlash, qadoqlash, yig'ish ishchilari (*Yengil ishlab chiqarish*). Takrorlanuvchi, oddiy, ko'z bilan ko'rinadigan natijaga tezda erishiladigan ishlar. Jismoniy kuch talab etmaydi, lekin e'tibor va izchillikni rivojlantiradi.

Xalqaro misol: Shvetsiyada **“Samhall”** kompaniyasi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun yig'uv va qadoqlash ishlari bilan shug'ullanuvchi ish joylarini yaratgan.

Italiyada **“Lavoro Anch'io”** loyihasi orqali nogironligi bo'lgan shaxslar kichik ustaxonalarda ishlashadi.

6. Hayvonlarga qarovchi yordamchisi (*Ferma yoki hayvonot bog'ida*). Hayvonlarga berilgan g'amxo'rlik orqali mehr-shafqat, tartib-intizom, kundalik mas'uliyat singdiriladi. Ayniqsa qishloq joylarda juda ham qulay bo'ladi.

Xalqaro tajriba: Finlandiyada terapevtik fermer xo'jaliklarida aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi.



“Terapevtik fermer xo'jaligi” - bu jismoniy, aqliy yoki emotsional nogironligi bo'lgan bolalarga terapevtik yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan qishloq xo'jaligi faoliyatiga asoslangan muassasa yoki joydir.

Bu turdagi fermer xo'jaliklarida quyidagi faoliyatlar orqali davolash va ijtimoiy moslashtirish ishlari olib boriladi:

hayvonlar bilan ishlash (masalan, otlar, echkilar, qushlar) - bu hayvonoterapiya deb ataladi;

sabzavot, meva ekish va parvarishlash - bog' terapiyasi (hortikultur terapiya); tabiat bilan bevosita muloqot - bolalar o'zini xavfsiz his qiladi, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi;

yengil jismoniy mehnat - bu bolalarning harakat koordinatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Finlandiyada bu kabi terapevtik xo'jaliklar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ijtimoiy integratsiya, o'z-o'zini boshqarish, mehnatga qiziqish va emotsional barqarorlikni rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Avstriyada **“Green Care”** dasturi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun hayvon parvarishi orqali ish bilan bandlikni rivojlantiradi.



7. Qo'l ishlari ustasi (*Rassomchilik, kulolchilik, qo'lda bezak ishlari*). Bu orqali bolalarning estetik didi, ijodiy ifodasi, emotsional rivojlanishi kuchayadi. Jarayon mustaqil ishlash yoki ustoz rahbarligida amalga oshiriladi.

Xalqaro tajriba: Fransiyada **“Art et Handicap”** (*San'at va nogironlik*) markazlari aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun san'at orqali ish va daromad yaratadi.

Koreyada aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar qo'lda yasalgan sovg'alarni tayyorlab, internet orqali sotishadi.

8. Kutubxonachi yordamchisi (*Kitoblarni saralash, nusxa olish*). Tashkiliy ishlarda xizmat ko'rsatishga asoslangan bo'lib, o'qituvchi yoki kutubxonachi nazorati ostida bajariladi.

Xalqaro tajriba: Norvegiyada inklyuziv ta'lim dasturlari doirasida maxsus maktab bitiruvchilari mahalliy kutubxonada stajirovka o'taydi.



Murakkab nuqsonli (og‘ir darajadagi aqli zaif) bolalar uchun mos kasb tanlash

Murakkab nuqsonli (*ya'ni og'ir darajadagi aqli zaif*) bolalar uchun kasb tanlashda asosiy yondashuv - ularning individual imkoniyatlari, qiziqish-qobilatlari va sensor-motor ko'nikmalaridan kelib chiqiladi. Ularni yengil va strukturaviy faoliyat turlariga yo'naltiriladi.

Murakkab nuqsonli (og‘ir darajadagi aqli zaif) bolalar uchun asosiy yondashuvlar Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (*ICF - International Classification of Functioning, Disability and Health*) - tomonidan ishlab chiqilgan. Har bir shaxsning qobiliyati va funksionalligiga qarab mos faoliyat belgilanadi. Aqli zaiflik og‘ir bo‘lsa ham, u odam butunlay mehnatga yaroqsiz emas, balki unga moslashtirilgan ish joyi va vazifalar bilan ishtirok etishini ta'minlash mumkin.

Shundan kelib chiqib tavsiya etiladigan kasblar:



1. Qadoqlash va saralash ishlari (*Packaging & Sorting Jobs*).

Oddiy shakl va rang asosida buyumlarni ajratish, qadoqlash, yopishtirish ishlarini bajaradi.

Xalqaro misollar: Germaniyada **“Lebenshilfe”** tashkilotlari og‘ir aqli zaif bolalar uchun qandolat mahsulotlarini qadoqlash, plastik qismlarni tartiblash kabi ish joylarini yaratib keladi. Yaponiyada **“Fukushi jissō”** (福祉実証) nomli nogironlar markazlari oddiy qismlarni yig‘ish ishlariga jalb etadi.



2. Bog‘bon (*Horticultural Work*). Gul ekish, sug‘orish, sabzavot yig‘ish, begona o‘tlarni yulish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Finlandiyada **“Green Care”** dasturi doirasida og‘ir aqli zaif bolalar kichik guruhlarda terapevtik bog‘larda ishlaydi. Kanadada **“Social Farms”** loyihasi alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni oddiy ekinlar ekish va parvarish qilish bilan kasbiy rehabilitatsiyani ta'minlaydi.

3. Tozalash va yengil sanitariya ishlari ishchisi (*Cleaning Support Tasks*). Stol artish, pol supurish, axlat solingan qoplarni yig‘ish va boshqa ishlar amalga oshiriladi.

Norvegiyada **“NAV”** ijtimoiy mehnat markazlari orqali aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun mos soddalashtirilgan tozalash vazifalari yaratiladi.





4. Kiyimlarga belgi yopishtirish yoki tugma qadash (*Very Basic Sewing or Labeling Tasks*). Tugmalarni qadash, yengil choklar tikish, mahsulotga belgi yopishtirish kabilar qilinadi.

Fransiyadagi **“ESAT”** (Établissements et services d’aide par le travail) markazlarida aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar (qadoqlash) etiketkalash, tugma tikish ishlariga o‘rgatiladi.

5. Hayvonlarga qarovchi yordamchi (*Animal Care Assistant*). Quyon, tovuq, mushuk yoki it kabi hayvonlarga suv, ovqat berish, o‘rnini tozalash.

Xalqaro tajriba: Niderlandiyada **“De Seizoenen”** markazida og‘ir aqli zaif bolalar terapevtik xo‘jaliklarda kichik hayvonlarga xizmat ko‘rsatadi.



Kasb turi	Sababi	Xalqaro amaliyot
Qadoqlovchi, saralovchi	Takrorlanuvchi, oddiy, motorikaga mos	Germaniya, Yaponiya
Bog‘bon	Tabiat bilan aloqa, sezgi va harakatni rivojlantiradi	Finlandiya, Kanada
Tozalash ishlari ishchisi	Tushunarli, strukturaviy, muntazam ish	Norvegiya
Qo‘l ishlari ustasi	Diqqatni jamlashni o‘rgatadi	Fransiya
Hayvonlarga qarovchi yordamchi	Hissiy barqarorlik, mas‘uliyat	Niderlandiya

Autistik spektri buzilgan bolalar uchun mos kasblar tanlash

Autistik spektr buzilishlari bo'lgan bolalar ko'pincha yuqori diqqat, tizimli fikrlash, qoidalarga amal qilish, takroriy vazifalarni aniq bajarish va muayyan sohaga chuqur qiziqish bilan ajralib turadi.

Shu sababli ularni kasbga yo'naltirishda ijtimoiy faollik darajasidan ko'ra, aynan ushbu kuchli tomonlariga tayangan holda yondashish muhim hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar esa autistik bolalar uchun mos, barqaror va bashorat qilinadigan ish muhitini yaratish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda autistik spektri buzilgan bolalar uchun eng mos zamonaviy kasblardan biri - **axborot texnologiyalari sohasi** hisoblanadi.

Jumladan, dasturiy ta'minotni testlovchi (software tester) kasbi katta e'tibor va aniqlikni talab qiladi. Bu kasbda xatolarni topish, ko'rsatmalar asosida tekshiruv o'tkazish va natijalarni yozma shaklda qayd etish muhim bo'lib, og'zaki muloqot kam talab qilinadi.

Xalqaro tajribada Daniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida autistik yoshlar aynan ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Shuningdek, **ma'lumotlar bilan ishlash** (data entry, ma'lumotlarni saralash, jadval va bazalar bilan ishlash) autistik bolalar uchun mos hisoblanadi. Bu faoliyatda tartib, takroriylik va aniqlik muhim bo'lib, vazifalar aniq algoritm asosida bajariladi. Ko'plab davlatlarda bunday ishlar masofadan turib bajarilishi ham mumkin, bu esa bolaga qulay muhit yaratadi.

Dasturchilik va veb-ishlab chiqish ham autistik spektrdagi o'quvchilar uchun istiqbolli kasblardan biridir. Ushbu sohada mantiqiy fikrlash, kod qoidalarga amal qilish va yozma aloqa asosiy o'rin tutadi. Autistik bolalar ko'pincha bir muammoni uzoq vaqt davomida chuqur tahlil qilishga qodir bo'lib, bu dasturlash jarayonida katta ustunlik beradi.

AQSh va Yevropada autistik yoshlar uchun maxsus moslashtirilgan IT tayyorlov dasturlari mavjud.

Yana bir muhim yo'nalish - **kiberxavfsizlik va tizim monitoringi**. Bu kasblarda doimiy kuzatuv, tartib va noodatiy holatlarni aniqlash talab qilinadi. Autistik bolalarning naqsh va muvofiqlikni tez ilg'ash qobiliyati bunday kasblarda juda foydali hisoblanadi.

Autistik spektrdagi bolalar uchun grafik dizayn, raqamli san'at va animatsiya ham mos bo'lishi mumkin. Ayniqsa, vizual fikrlashi kuchli bo'lgan bolalar uchun dizayn qoidalari, ranglar uyg'unligi va kompozitsiya bilan ishlash qulay hisoblanadi. Bu sohada portfel asosida ishlash imkoniyati mavjud bo'lib, muloqot bosimi nisbatan kam bo'ladi.

Shuningdek, **video montaj, foto tahrirlash va raqamli kontent tayyorlash** kabi kasblar ham autistik bolalar uchun qulaydir. Bu ishlar ketma-ket bajariladigan texnik bosqichlarga ega bo‘lib, bola mustaqil ravishda ishlashi mumkin. Zamonaviy platformalar orqali bunday faoliyat masofadan turib ham amalga oshiriladi.



Autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalarni kasbga tayyorlashda eng muhim jihat - kasbni bosqichma-bosqich o‘rgatishdir. Har bir kasb mayda ko‘nikmalarga bo‘linib, vizual ko‘rsatmalar, yozma yo‘riqnomalar va aniq jadval asosida tushuntirilishi zarur.

Shuningdek, bolaga sensor jihatdan qulay muhit yaratish, ortiqcha shovqin va stress omillarini kamaytirish katta ahamiyatga ega.

Autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun zamonaviy kasblar nafaqat bandlik, balki o‘zini namoyon qilish, mustaqillik va ijtimoiy moslashuvning muhim vositasi hisoblanadi. To‘g‘ri tanlangan kasb va moslashtirilgan ta’lim yondashuvi orqali ular jamiyatning to‘laqonli va samarali a’zolariga aylanishlari mumkin.

IX BOB

KASBGA YO‘NALTIRISHDA AMALIY TAVSIYALAR

Ota-onalarga maslahat: uy sharoitida amaliy ko‘nikmalarni qo‘llab-quvvatlash yo‘llari

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim muassasalarida kasb - hunar o‘rganar ekan, bu jarayonni uyda davom ettirish yanada mustahkamlash uchun zamin yaratadi. Ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, amaliy ko‘nikmalarni real hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Quyida ota - onalar uchun foydali tavsiyalar keltiriladi.

1. Kasbiy ko‘nikmalarni uy sharoitiga moslashtirish. Maktabda o‘rganilgan ish turlari oddiy, kundalik uy ishlari bilan uyg‘unlashtirilsin. Agar bola tikuvchilikni o‘rganayotgan bo‘lsa, mayda choklar tikish, tugma qadash yoki kichik andazalarni qog‘ozda kesib olishni uyda mashq qilish mumkin. Pazandachilik yo‘nalishidagi o‘quvchi uchun oddiy salat tayyorlash, mevalarni tozalash, non kesish kabi vazifalar topshiriladi. Duradgorlik bilan shug‘ullanayotgan bola uchun oddiy ta’mirlash ishlarida ishtirok ettirish tavsiya etiladi.

2. Bosqichma-bosqich ko‘rsatmalar bering. Bolaga vazifani birdan tushuntirmaslik, balki harakatlarni ketma-ket bosqichlarga ajratib tushuntirish kerak. Masalan, “Salat tayyorlash” uchun: mevalarni tayyorlash (yuvisht), kesish, aralashtirish, tarqatish.

3. Mustaqil harakat qilishini qo‘llab-quvvatlang. Bola o‘zi bajara oladigan ishni albatta o‘zi bajarsin. Kamchilik qilsa - tanqid qilmang, aksincha, harakatini maqtang va xatoni birga ko‘rib chiqing. “Sen uddalading”, “Bu safar yaxshi chiqdi, yana mashq qilamizmi?” kabi ko‘ngilni ko‘targuvchi so‘zlar motivatsiyani oshiradi.

4. Doimiy va qulay muhit yarating. Uyda har kuni aynan o‘sha kasbga doir oddiy topshiriq uchun qisqa vaqt ajrating (15 - 30 daqiqa). Bu vaqt davomida boshqa chalg‘ituvchi omillar (telefon, televizor) bo‘lmasligi muhim.

5. Vizual materiallardan foydalaning. Ish ketma - ketligini eslatib turuvchi rasmlar ko‘rsatmalar tayyorlang yoki maktabda berilgan materiallarni ko‘zgudek olib qilib qo‘ying. Masalan, “Tugma tikishning 4 bosqichi” - rasmlar bilan devorga ilinsa, bola har safar qarab eslab oladi.

6. Munosabatlarda ijobiylikni saqlang. Bolaning mehnatini qadrlang, har qanday kichik muvaffaqiyatini ham nishonlang (yaxshi bajargan ish uchun tabassum, kichik sovg‘a, maqtov). Oilaning boshqa a‘zolari ham bu jarayonga jalb qilinsa, bola o‘zini muhim his qiladi.

7. Maktab bilan hamkorlikda harakat qiling. O‘qituvchilar bilan bog‘lanib, uyga berilishi mumkin bo‘lgan amaliy topshiriqlarni aniqlab oling. Ustozlari tomonidan tuzilgan individual ta’lim dasturi asosida uyda bajarish uchun mashg‘ulotlar o‘tkazing. Ota-onalar tomonidan yaratilgan qulay, xavfsiz va doimiy rag‘batlantiriladigan muhit bolaning kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Har bir kichik muvaffaqiyat - bu katta ijtimoiy moslashuv sari qo‘yilgan muhim qadamlardan biridir.

Kasbiy mashg'ulotlarni baholash mezonlari va usullari

Baholash natijalari:

har bir bolaning shaxsiy rivojlanish dinamikasini kuzatishga xizmat qiladi; bola, ota - ona va o'qituvchi o'rtasida samarali muloqotni tashkil etish vositasi bo'lib xizmat qiladi;

bolaga nisbatan individual yondashuvni shakllantirish uchun asos bo'ladi (Masalan, ko'proq mashq kerak bo'lgan yo'nalishlar aniqlanadi).

Differensial (individual) baholash yondashuvi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda har xil psixofizik rivojlanish darajalari bo'lganligi sababli baholash quyidagi tamoyillarga tayanishi kerak:

solishtirish emas, shaxsiy yutuqqa asoslangan baholash;

har bir bola o'zining avvalgi natijalari bilan taqqoslanadi (Masalan, 1-chorak va 2 - chorakdagi rivojlanish);

baholashda harakat, niyat, qiziqish kabi jihatlar ham inobatga olinadi.

Ota-onalar uchun baholash ishtirokchiligi. Ota - onalarga oddiy kuzatuv jadvali berilishi mumkin (Uyda bajargan ishlari uchun). Ular bolani harakatlari, urinishlari, tozalikka rioya qilishi, asbob-uskunalarini tutishi bo'yicha baholab, o'qituvchiga yetkazadi. Bu holatda bola uy va maktab orasida uzviy muloqotda rivojlanadi.

5. Refleksiya: Bolaning o'z-o'zini baholashi. Bola o'qituvchi yordamida "Bugun men qanday ish qildim?", "Men nimani yaxshi bajardim?", "Qanday ishda yordam kerak?" kabi savollarga rasmiy yoki og'zaki javob berishi mumkin. Bu usul o'ziga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi, fikrlashni o'stiradi va o'zini qadrlash hissinini shakllantiradi.

1. Umumiy baholash mezonlari (barcha kasblar uchun)

Mezon nomi	Baholash ko'rinishi	Ball yoki daraja
1. Topsiriqni tushunishi	Ko'rsatma va yo'riqnoma asosida bajara oladi	0 – tushunmadi 1 – yordam bilan 2 – mustaqil
2. Ish ketma-ketligiga amal qilish	Amallarni to'g'ri va tartibda bajaradi	0 – noto'g'ri 1 – qisman 2 – to'liq
3. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish	Jismoniy zarar xavfi bo'lmasligi uchun	0 – rioya qilmaydi 1 – eslatma bilan 2 – mustaqil
4. Asbob-uskunalaridan foydalanish ko'nikmasi	To'g'ri va ehtiyotkorlik bilan ishlata oladi	0 – foydalana olmaydi 1 – qisman 2 – to'liq
5. Natijaga yo'naltirilganlik	Tayyor mahsulot yoki xizmat sifatli bajarilgan	0 – tugallanmagan 1 – qoniqarli 2 – yaxshi
6. Mustaqillik darajasi	Qo'llab-quvvatlash darajasiga qarab	0 – to'liq yordam bilan 1 – qisman yordam bilan 2 – mustaqil

Izoh: Har bir topshiriq **12 ballik** tizim bo'yicha baholanadi. Yakuniy baho ko'rsatkichlarga qarab "boshlang'ich", "yetarli", "mustahkam" darajaga ajratilishi mumkin.

2. Kasbga xos baholash mezonlari (misollar): Tikuvchilik bo'yicha:

Mezon	Tavsif	Ball
Andaza orqali bichishga rioya qilish	O'lchov va chiziqlar aniqligi	0–2
Chok sifati	To'g'ri, tekis va mustahkam	0–2
Matoga ishlov berish	Tola cho'zilmasligi, toza ish	0–2

Qandolatchilik bo'yicha:

Mezon	Tavsif	Ball
Tarkibini eslab qolish	Retseptni yodda tutish	0–2
Ish ketma-ketligini bilish	Pishirish tartibiga rioya qilish	0–2
Gigiyena va tozalik	Qo'l yuvish, toza joyda ishlash	0–2

Baholash shakllari:

Kuzatuv varaqasi: har bir amaliy mashg'ulotda o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi.

Portfoliyo: bolaning amaliy ishlari, suratlari va o'zgarishlarni jamlash.

Og'zaki baholash: bolaning o'z fikrini ifoda etish orqali o'zini baholashi (refleksiya).

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun kasbiy sinovlar, ustoz-shogirdlik va reabilitatsiya yo'llari

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish jarayoni kasbni bevosita tanlashga emas, balki bolaning qaysi faoliyatga mosligini aniqlash va mehnat orqali bosqichma-bosqich moslashtirishga qaratilishi lozim. Ushbu jarayon kasbiy sinov, ustoz-shogirdlik va reabilitatsiya elementlarining uzviy integratsiyasi asosida tashkil etiladi.

Kasbiy sinovlar (Vocational Trial) kasbga yo'naltirishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, bolaning "Qaysi kasbni egallashi" emas, balki "Qaysi faoliyat unga mos kelishi" aniqlanadi. Sinovlar qisqa muddatli (7-10 kun), past yuklamali (kuniga 1-2 soat), bir vaqtning o'zida bitta faoliyat asosida tashkil etiladi. Ushbu bosqichda bolaning vazifani tushunishi, davomiylikka chidamliligi, qiziqishi va stressga munosabati baholanadi. Muhim jihat shundaki, bu jarayonda natija emas, moslik darajasi asosiy mezon hisoblanadi. Sinovlar maktab yoki kollej ustaxonalari, ijtimoiy korxonalar bazasi yoki raqamli kasblar uchun masofaviy shaklda o'tkazilishi mumkin.

Ustoz-shogirdlik (Mentorship) bosqichida bola tanlangan faoliyatni bevosita inson orqali o'rganadi. Ustoz pedagog bo'lishi shart emas, biroq sabrli, aniq ko'rsatma bera oladigan va vazifani takroran tushuntirishga tayyor bo'lishi zarur. Eng samarali model - kasb ustasi va psixologik yo'naltirilgan qisqa tayyorlovning uyg'unligidir. Jarayon kuzatish, birgalikda bajarish, yordam bilan bajarish va qisman mustaqil bajarish bosqichlarida amalga oshiriladi. Ustoz-shogirdlik haftasiga 2-3 marotaba, 1,5-2 soatdan, 1-3 oy davomida olib boriladi. Bu bosqich bolaning stresssiz moslashuvi va kasbni ongli ravishda qabul qilishini ta'minlaydi.

Reabilitatsiya yo'llari kasbiy tayyorlashdan ajratilgan holda emas, balki mehnat faoliyatining o'zi orqali amalga oshirilishi lozim. Kasbiy faoliyat reabilitatsiya vositasi sifatida qo'llanib, mehnat terapiyasi orqali harakatlar rivojlantiriladi, nutq terapiyasi ish jarayonidagi muloqot orqali olib boriladi, ijtimoiy reabilitatsiya jamoada ishlash orqali, emosional reabilitatsiya esa o'zini foydali his qilish orqali ta'minlanadi. Ushbu jarayonda maxsus pedagog, psixolog, reabilitolog va ish joyidagi ustoz hamkorlikda faoliyat yuritadi. Natijada bola "davolanayotgan shaxs" emas, balki mehnat qilayotgan subyekt sifatida rivojlanadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu modelni samarali joriy etish uchun maktab va kasbiy ta'lim muassasalari qoshida kasbiy sinov xonalari tashkil etish, mahalliy korxonalar bilan ustoz-shogirdlik shartnomalarini yo'lga qo'yish, reabilitatsiya markazlari bilan birgalikda individual rejalashtirish hamda ish joylarida "job-coach" (mehnat murabbiyi) institutini joriy etish zarur.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun kasbga yo'naltirish bir martalik tanlov emas, balki: test - sinov - ustoz - reabilitatsiya - ish ko'rinishidagi uzluksiz va tizimli jarayon bo'lishi lozim.

Bunda asosiy savol - "qaysi kasb?" emas, balki "qanday sharoitda bola muvaffaqiyatli ishlay oladi?" bo'lishi kerak.

Sun'iy intellekt bilan bog'liq, ammo inson ishtiroki majburiy bo'lgan kasblar

1. Sun'iy intellekt operatori (AI operator / AI assistant). SI tizimlarini ishga tushirish, kuzatish, natijalarni tekshirish va sozlash bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt nazoratsiz ishlay olmaydi, u doim inson tekshiruviga muhtoj bo'ladi.

2. Ma'lumotlarni tekshiruvchi va tozalovchi mutaxassis (Data annotator / data validator). Sun'iy intellekt o'rganadigan ma'lumotlarni belgilash, tekshirish, xatolarni aniqlash vazifasini bajaradi.



SI o'zi bajara olmaydi, chunki: kontekstni tushunish, madaniy va axloqiy baholash inson ishtirokini talab qiladi.

3. Maslahatchi (kasbiy, psixologik, ijtimoiy yo'naltiruvchi). Bolalar, o'smirlar yoki ota-onalar bilan ishlaydi. Insonning ishonchi, empatiyasi va axloqiy qaror qabul qilishida ishtirok etadi.

4. Maxsus pedagog yoki yordamchi mutaxassis (assistent, tyutor). Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan individual ishlaydi.

SI buni almashtira olmaydi, chunki: har bir bola individual real muhit va jonli munosabat zarur bo'ladi.

5. Ijodiy va dizayn kasblari (SI yordamchi, lekin ijodkor emas). Ilova va saytlarni odamlar qanday his qilishi, tushunishi va foydalanishini rejalashtiradi.

SI dizayn chizadi, lekin inson ehtiyojini his qila olmaydi.

6. Kontent strateg yoki kontent muharriri. Matn, video, audio mazmunni tanlaydi, tahrirlaydi, maqsadga moslaydi.

SI matn yozadi, lekin mazmunning ijtimoiy ta'sirini baholay olmaydi.

7. Aqlli qurilmalar texnigi (Smart device technician). Sensorlar aqlli uy tizimlari, moslashtirilgan texnologiyalar bilan ishlaydi.

SI qurilmani boshqaradi, lekin ta'mirlash va moslashtirishni bajara olmaydi.

8. Assistiv texnologiyalar bo'yicha mutaxassis. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun: ekran o'quvchi, mos klaviatura, maxsus dasturlarni sozlaydi.

Bu kasb faqat rivojlanadi, yo'qolmaydi.

9. Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha mutaxassis. SI qarorlari: adolatlimi?, kamsitish yo'qmi?, bolalar huquqlariga zid emasmi? Kabi savollarni baholaydi.

Bu sohada inson o'rni mutlaqo muhim.

10. Raqamli xavfsizlik va monitoring mutaxassisi. Axborot, shaxsiy ma'lumotlar va bolalar xavfsizligini nazorat qiladi.

SI yordam beradi, lekin yakuniy mas'uliyat insonda qoladi.

11. Reabilitatsiya yo‘nalishidagi mutaxassislar. (Massajchi, ergoterapevt, san’at-terapevt).

Inson tanasi va hissiyotlari bilan ishlash - SI uchun yopiq soha.

12. Individual hunarmand va ustalar (*dizayner tikuvchi, qo‘lda yasalgan buyumlar ustasi, dekorator*). Qo‘l mehnati va ijodiy faoliyat hech qachon to‘liq avtomatlashtirilmaydi.

Sun’iy intellekt rivoji ayrim kasblarni avtomatlashtirishi mumkin, biroq insonning ijodiy tafakkuri, emotsional sezgirligi, axloqiy mas’uliyati va real muhitda moslashish qobiliyatiga tayanuvchi kasblar o‘z dolzarbligini saqlab qoladi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni aynan shunday kasblarga yo‘naltirish barqaror bandlik va ijtimoiy integratsiyaning muhim kafolatidir.

XULOSA

Bugungi kunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kasbiy rivojlanishi va bandligini ta'minlash masalasi faqat ta'lim tizimi doirasidagi vazifa emas, balki butun jamiyat uchun strategik ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Chunki inson kapitalining har bir a'zosini inklyuziv yondashuv orqali rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sish, mehnat bozorining ijtimoiy ochiqqligi hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur qo'llanma ijtimoiy hamjihatlik va imkoniyatlar tengligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini amaliy mazmun bilan to'ldiruvchi muhim metodik manba sifatida e'tirof etilishi mumkin. U alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni "cheklovlar" prizmasida emas, balki "imkoniyatlar" asosida baholashga, kasb tanlashda real moslik mezonlariga tayanishga va natijada jamiyatda to'laqonli ishtirok etishi ta'minlanadi.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ham Supported Employment (qo'llab-quvvatlovchi bandlik), inklyuziv kasbiy ta'lim, san'at-terapiya, mehnat-terapiya hamda texnologik moslashuv kabi yondashuvlar bosqichma-bosqich va tizimli tarzda joriy etilishi zarur. Bu jarayon "alohida ehtiyojli bolani faqat o'qitish" bilan cheklanmay, uni real mehnat bozoriga olib kiradigan zanjirni shakllantirishni talab qiladi: kasbiy diagnostika - moslashtirilgan tayyorlov - sinov-amaliyot - ustoz-shogirdlik - qo'llab-quvvatlovchi bandlik.

Qayd etish lozimki, kasbga yo'naltirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan sharoitni to'g'ri tashkil etish bilan belgilanadi. Ya'ni asosiy savol "qaysi kasbni tanlaydi?" emas, balki: "qanday sharoitda ishlay olsa - muvaffaqiyatli bo'ladi?" degan yondashuv bo'lishi kerak. Bunda moslashtirilgan ish vazifalari, individual ish sur'ati, xavfsiz va tushunarli instruktsiya, vizual/yozma ko'rsatmalar, assistiv texnologiyalar hamda mehnat murabbiyi (job-coach) orqali doimiy qo'llab-quvvatlash kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning iqtidorini ro'yobga chiqarish va uni jamiyatga to'laqonli a'zo sifatida shakllantirish uchun tarmoqlararo hamkorlik zarur: ta'lim muassasalari, ota-ona, reabilitatsiya xizmatlari, ijtimoiy himoya tizimi, kasbiy ta'lim muassasalari, xususiy sektor va nodavlat tashkilotlar o'zaro uyg'un ishlamasa, natija barqaror bo'lmaydi. Shu bois qo'llanmada ilgari surilgan yondashuvlar "tavsiya" darajasida qolib ketmasdan, hududiy imkoniyatlar asosida pilot loyihalar, so'ng esa ommalashtirish mexanizmlari orqali keng joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur qo'llanma nafaqat kasblarni tanlashda amaliy yo'riqnoma, balki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan hurmat, e'tibor va zamonaviy inklyuziv yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiluvchi tizimli strategik hujjat sifatida qaralishi mumkin. U bolalarning orzusi va salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali nafaqat individual hayot sifatini, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotini ham mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 28-dekabrda PQ–60-sonli qarori.
2. UNESCO, (2020), Inclusion and Education: All Means All. Global Education Monitoring Report, Paris: UNESCO Publishing, Inklyuziv ta’limning global holati va strategiyalari.
3. World Health Organization (WHO). (2011), World Report on Disability. Geneva: WHO Press, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy inklyuziyasi va bandligi haqida keng tahlil.
4. International Labour Organization (ILO), (2015), Decent Work for Persons with Disabilities: Promoting Rights in the Global Development Agenda. Geneva: ILO, nogironlar uchun munosib mehnat va bandlik siyosatlari.
5. European Agency for Special Needs and Inclusive Education, (2018), Vocational Education and Training (VET) for Learners with Special Educational Needs. Brussels, kasb-hunar ta’limida imkoniyati cheklangan yoshlar uchun tajribalar.
6. Autism-Europe, (2019), Employment and autism: Towards inclusive labour markets. Brussels, Autizm spektridagi shaxslar uchun ish imkoniyatlari bo‘yicha tahlil va tavsiyalar.
7. Reggio Children, (2015), The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation, Reggio Emilia, Italy, san’at-terapiya, ijodkorlik va rivojlanishga yondashuv.
8. UNICEF, (2013), Children and Young People with Disabilities: Fact Sheet, New York, nogiron bolalarning huquqlari va ijtimoiy ishtiroki.
9. Gallaudet University, (2022), Deaf Education and Career Integration: Best Practices, Washington, D.C, eshitishida nuqsoni bo‘lgan yoshlarga ta’lim va kasbiy integratsiya tajribalari.
10. OECD, (2017), The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework. Paris, XXI asrda zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, o‘zini ifodalash va moslashuvchanlik.
11. European Union of the Deaf (EUD), (2020), Strategic Plan for Employment Inclusion, Brussels, karlar uchun Yevropadagi bandlikka oid siyosatlar va dasturlar.
12. [Top Career Opportunities for Visually Impaired Job Seekers — HUNK WHIZ](#);
13. <https://interviewguy.com/jobs-for-sign-language-majors/>
14. <https://ishonch.uz/news/3915>

KASB TANLASHDA TENG IMKONIYATLAR

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etilgan inklyuziv ta'lim, boshlang'ich tayanch korreksion sinflar, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari) uchun

